2 BOB

MAKTABNI SAMARALI ISH REJIMIGA O‘TKAZISH DASTURLARIDA KIRISH MONITORINGI (MAKTAB JARAYONLARI SIFATINING CHUQURLASHTIRILGAN DIAGNOSTIKASI)

2.1. Maktab jarayonlari sifatini kompleks baholash mazmuni

2.2. O‘quv jarayonini tashkil etish sifatini diagnostika qilish (aniqlash)

2.3. O‘qituvchining dars o‘tish sifatini baholash

2.4. Maktab muhitini baholash: qayta aloqa vositalari

MAKTABNI SAMARALI ISH REJIMIGA O‘TKAZISH DASTURLARIDA KIRISH MONITORINGI (MAKTAB JARAYONLARI SIFATINING CHUQURLASHTIRILGAN DIAGNOSTIKASI)

Shunday qilib, maktab jamoasi samarali maktab modelini joriy etish va tashkilotni samarali ish rejimiga o‘tkazish dasturini ishlab chiqishga qaror qildi. Xo‘sh, ishni nimadan boshlash kerak? Albatta, joriy vaziyat haqidagi ma’lumotlarni to‘plash va ularni chuqur tahlil qilishdan.

Samarali maktab modeli kirish, oraliq va yakuniy monitoring jarayonlarini o‘z ichiga oladi. Mazkur jarayonlar ham maktabga nisbatan tashqi subyektlar tomonidan, ham maktabning o‘zi tomonidan (ichki baholash shaklida) amalga oshiriladi.

Birinchi bosqichda, maktablarning ta’lim natijalarini ularning faoliyat sharoitlarini hisobga olgan holda tashqi monitoring o‘tkaziladi. Ushbu monitoring jarayonida hududdagi past ta’lim natijalarini ko‘rsatayotgan hamda noqulay ijtimoiy sharoitlarda faoliyat yuritayotgan maktablar aniqlanadi. Maktablarning faoliyat sharoitlari va ta’lim natijalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni to‘plash, shuningdek, har bir maktab uchun **“Ijtimoiy farovonlik indeksi”ni hisoblash tartibi loyiha doirasida ishlab chiqilgan metodik qo‘llanmalar va ilmiy maqolalarda batafsil bayon etilgan.**

Monitoringning ikkinchi bosqichi maktabdagi asosiy ta’lim jarayonlari sifatini chuqurlashtirilgan ichki diagnostika qilishdan iborat. Ushbu diagnostika va uning natijalarini tahlil qilish ishlari maktab faoliyati samaradorligini oshirish dasturini ishlab chiqishdan oldin ta’lim tashkiloti tomonidan mustaqil ravishda amalga oshiriladi.

Monitoringning uchinchi bosqichi maktab faoliyati samaradorligini oshirish dasturini amalga oshirish jarayonini, uning oraliq va yakuniy natijalarini izchil kuzatib borishdan iborat. Bu bosqich yakuniy, beshinchi bobda batafsil taqdim etiladi.

Hozir esa maktab ichki kirish monitoringini muvaffaqiyatli o‘tkazish bo‘yicha asosiy tavsiyalarni ko‘rib chiqamiz.

Maktabning o‘z-o‘zini diagnostika qilishi uning faoliyatidagi kuchli va takomillashtirishni talab etuvchi jihatlarini aniqlash tizimli o‘zgarishlarni boshlashdagi birinchi qadam hisoblanadi. Maktabning joriy holati diagnostikasini samaradorlik modelini hisobga olgan holda o‘tkazish zarur [26]. Quyida 1-jadval keltirilgan bo‘lib, unda o‘qitish, boshqaruv va maktab ta’lim muhiti sifatini baholash imkonini beruvchi maktab faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari jamlangan. Ushbu ko‘rsatkichlardan tashqari, ta’lim mazmuni, o‘quvchilarning ta’lim natijalari va yutuqlari dinamikasi, shuningdek, maktab resurslarining umumiy holatini ham chuqur tahlil qilish lozim.

Maktabning o‘z-o‘zini diagnostika qilish modelini ishlab chiqishda ta’lim sifati va ta’lim natijalarini baholash bo‘yicha keng qamrovli tadqiqotlari bilan xalqaro miqyosda e’tirof etilgan Angliyaning Ta’lim standartlari bo‘yicha qirollik inspeksiyasi (Ofsted)ning metodik materiallaridan foydalanildi [27]. 2.1–2.2-bandlarda tavsiflanadigan maktab jarayonlari

sifatini baholash sxemasi va vositalari esa Shotlandiya ta'lim inspeksiyasi qo'llanmasi asosida shakllantirilgan [4;10].

1-jadvalda maktab jarayonlari sifatining asosiy ko'rsatkichlari ularni tashkil etuvchi elementlarga bo'lingan. Tahlil davomida har bir ko'rsatkich darajasini 1 (minimal) dan 6 (eng yuqori (namunaviy)) gacha bo'lgan shartli shkala bo'yicha baholash taklif etiladi. Bunday baholash yaxshilash bo'yicha harakatlarni yanada ehtiyotkorlik bilan rejalashtirishga yordam beradi.

1-jadval.

Maktab jarayonlari ko'rsatkichlarining namoyon bo'lish darajalari

Daraja	Bahosi	Ko'rsatkich
6-daraja	Yuqori	Barcha yo'nalish va jihatlarda mukammal natijalar
5-daraja	Juda yaxshi	Tashkilot faoliyatida yaqqol ko'zga tashlanadigan kuchli tomonlarning mavjudligi
4-daraja	Yaxshi	Faoliyatning muhim sohalarida kuchli tomonlari mavjud, biroq ayrimlarini yaxshilash talab etiladi
3-daraja	Qoniqarli	Faoliyatdagi kuchli tomonlari zaif jihatlarga nisbatan biroz ustun turadi
2-daraja	Zaif	Muhim sohalarda sezilarli kamchiliklarning kuzatilishi
1-daraja	Qoniqarsiz	Kamchiliklari yaqqol ko'zga tashlanadi

Maktabda o'z-o'zini baholash tizimini yo'lga qo'yish uchun tegishli tashkiliy mexanizmni ishga tushirish lozim bo'lib, bu jarayon, eng avvalo, zaruriy normativ-metodik hujjatlarni ishlab chiqishdan boshlanadi. Ushbu maqsadda o'z-o'zini baholash tartibini belgilovchi tegishli buyruqlar chiqariladi, shuningdek, o'z-o'zini baholash bo'yicha nizom, metodik tavsiyalar, baholash mezonlari, jarayon algoritmi, so'rovnomalar ishlab chiqiladi.

Ishlab chiqilgan normativ hujjatlarda quyidagilar qat'iy belgilanadi: o'z-o'zini baholash jarayoniga mas'ul shaxslar; uni o'tkazish muddatlari va aniq tartibi; maqsadli ko'rsatkichlar hamda mezonlar; tegishli o'z-o'zini baholash vositalari; yakuniy hisobot shakllari.

O‘z-o‘zini tekshirishni o‘tkazish to‘g‘risidagi qaror mehnat jamoasining umumiy yig‘ilishida qabul qilinadi. Ta’lim tashkiloti rahbari tegishli buyruqni imzolaydi va umumiy jarayonga rahbarlik qiladi. Muayyan aniq mezonlar bo‘yicha o‘z-o‘zini baholashni o‘tkazish uchun maktab ma’muriyati tarkibidan (boshqaruv tajribasiga hamda ta’lim sifatini baholash tizimi sohasida maxsus tayyorgarlikka ega bo‘lgan xodimlarni tayinlash maqsadga muvofiqdir) mas’ul ishchi guruh rahbarlari tayinlanadi. Mazkur rahbarlar alohida ko‘rsatkichlar bo‘yicha o‘z-o‘zini baholashni o‘tkazish, ayrim vazifalarni amalga oshirish (so‘rovnomalar o‘tkazish, ma’lumotlarni to‘plash hamda umumlashtirish va h.k.) va guruhga biriktirilgan mezonlar bo‘yicha yakuniy hisobot loyihasini tuzish uchun maktab xodimlaridan iborat tashabbuskor guruhlarni shakllantiradilar.

O‘z-o‘zini baholash davomida turli intervyular, so‘rovnomalar o‘tkaziladi hamda xodimlardan va ta’lim jarayonining boshqa ishtirokchilaridan maktab faoliyati to‘g‘risida ma’lumot to‘plashning turlicha usul va shakllaridan foydalaniladi. So‘rovnoma varaqalarini shakllantirish jarayoni shunday amalga oshiriladiki, undagi savollarga maktab faoliyatining real holatini aniq misollar bilan tasdiqlovchi javoblar olinishi lozim. Ya’ni, jarayonda subyektiv fikrlarni emas, balki aynan aniq faktlarni to‘plash ko‘zda tutilishi kerak.

Maktab rahbari yoki uning o‘rinbosari tashabbuskor guruh a’zolariga o‘z-o‘zini baholashni tizimli o‘tkazish va yakuniy hisobotlarni to‘g‘ri tuzish bo‘yicha maxsus o‘quv-seminarlarini tashkil etadi. Shundan so‘ng, tashabbuskor guruh a’zolari bevosita amaliy ishga kirishadilar: zarur hujjatlarni tahlil qiladilar, so‘rovnomalar o‘tkazadilar, o‘qituvchilarning darslarini kuzatadilar va hokazo.

O‘z-o‘zini baholash bo‘yicha to‘plangan barcha ma’lumotlar ishchi guruh rahbarlariga kelib tushadi. Ular guruh a’zolari tomonidan taqdim etilgan hisobotlarni atroflicha tahlil qiladilar, yig‘ma hisobotni shakllantiradilar, uning natijalariga ko‘ra ta’lim tashkilotining kuchli va zaif tomonlarini aniqlaydilar hamda tayyor bo‘lgan hisobotlarni maktab direktoriga taqdim etadilar. Olingan ma’lumotlar bilan ishlash jarayonida maktab rivojlanishidagi o‘sish yoki pasayish tendensiyalarini aniqlash uchun turli vaqt davrlaridagi (kamida oxirgi 3 yillik) ko‘rsatkichlar qiymatlarini o‘zaro solishtirish lozim.

Tashkilotning aniqlangan kuchli tomonlarini kelgusida ham saqlab qolish va qo‘llab-quvvatlash uchun alohida qayd etish zarur. Yaxshilashni talab qiladigan muammoli sohalar esa tashkilotning bosh maqsadi, uning strategik vazifalari, siyosati va qadriyatlaridan kelib chiqqan holda, ustuvorlik hamda muhimlik darajasi bo‘yicha guruhlarga taqsimlanishi kerak. Har bir ko‘rsatkich bo‘yicha natijadorlik koeffitsiyenti ushbu ko‘rsatkichning amaldagi qiymatini uning rejalashtirilgan qiymatiga bo‘lgan nisbati orqali aniqlanadi.

Ta’lim tashkiloti faoliyati samaradorligi ko‘rsatkichlarining olingan qiymatlarini o‘xshash sharoitlarda joylashgan boshqa maktablarning o‘rtacha ko‘rsatkichlari, shuningdek, tuman (shahar), hududiy (viloyat) va umummilliy ta’lim sifatini baholash tizimlarining o‘rtacha ko‘rsatkichlari bilan o‘zaro solishtirish zarur. Jarayonlarning joriy holatini va ularning rivojlanish tendensiyalarini yanada yaqqolroq namoyish etish maqsadida, ma’lumotlarni vizuallashtirish vositalaridan (jadvallar, sxemalar va grafiklardan) unumli foydalanish lozim.

Maktab direktori o‘zini-o‘zi baholash natijalari bo‘yicha yagona yig‘ma hisobotni shakllantiradi, unga zarur tuzatishlar kiritadi hamda maktab pedagogik jamoasining umumiy yig‘ilishida muhokama uchun taqdim etadi. Mazkur muhokamalardan so‘ng, ushbu hisobotni ta’lim tashkilotidagi ishlarning haqiqiy holati to‘g‘risida obyektiv tasavvur beruvchi rasmiy hujjat sifatida tasdiqlaydi.

O‘z-o‘zini baholash bosqichi yakunlari bo‘yicha hisobot ma’lumotlari va mehnat jamoasi umumiy yig‘ilishining qarori asosida maktabda takomillashtirish ishlarini amalga oshirish uchun ikki-uchta ustuvor soha ajratib olinadi. Ustuvorliklar mavjud resurslar, umumiy tamoyillar va maqsadlar, shuningdek maktab ishining tashqi sharoitlarini hisobga olgan holda yaxshilash mumkin bo‘lgan faoliyat sohalari uchun belgilanadi. Bu haqda 3-bobda batafsil so‘z yuritiladi.


Keyingi bo‘limda loyiha doirasida “maktab jarayonlari sifatining chuqurlashtirilgan diagnostikasi” yoki shunchaki “maktabning chuqurlashtirilgan diagnostikasi” deb nomlangan kirish (boshlang‘ich) monitoringining asosiy mazmun-mohiyati va tarkibiy qismlari batafsil tavsiflanadi.



2.1. MAKTAB JARAYONLARI SIFATINI KOMPLEKS BAHOLASH MAZMUNI

Umumiy qilib aytganda, maktab ichki jarayonlari sifatini chuqurlashtirilgan diagnostika qilish tizimining umumiy tuzilishi 2-rasmda aks ettirilgan.

Navbatdagi 2-jadvalda esa maktab faoliyatining amaldagi holatini, ya'ni o'quv-tarbiya jarayonlaridan tortib, ta'lim tashkilotining tashqi muhit (ijtimoiy hamkorlar) bilan o'zaro aloqalarigacha bo'lgan bosqichlarni tavsiflovchi asosiy sifat mezonlari va ko'rsatkichlari guruhlangan holda keltirilgan.



2-jadval.

Maktab ichki jarayonlari sifatini chuqurlashtirilgan diagnostikasini amalga oshirish tartibi

№	Mezonlarning nomlanishi	Ko'rsatkichlar	Baholash darajasi					
			6	5	4	3	2	1
Ta'lim mazmuniga oid mezonlar								
1.1	O'quv rejaning strukturasi	- o'quv rejasining barcha elementlari qamrab olinganligi va muvozanatlashganligi; - ularning o'zaro bog'liqligi va bir-biriga singdirilganligi;						

2-jadvalning davomi

№	Mezonlarning nomlanishi	Ko‘rsatkichlar	Baholash darajasi					
			6	5	4	3	2	1
		- dars jadvallarini tuzish hamda o‘quvchilarning tanlovi bo‘yicha tadbirlarni tashkil etilganligi.						
1.2	Kurslar va dasturlar	- keng qamrovlilik, muvozanatlashganlik va tanlov imkoniyati borligi; - jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligi, uzluksizligi va izchil ravishda rivojlanib (oldinga siljib) borilganligi; - pedagog kadrlarga (o‘qituvchilarga) tizimli metodologik yordam ko‘rsatish va doimiy maslahatlar berish tizimi yo‘lga qo‘yilganligi.						
O‘zlashtirish mezonlari								
2.1	O‘zlashtirishning umumiy sifati	- maktabning o‘zlashtirishni oshirishdagi o‘sishi (yutug‘i); - o‘quvchilarning o‘quv faoliyatidagi ijobiy dinamikasi; - 5–14 yoshdagi bolalar o‘rtasidagi umummilliy darajalarga va/yoki umummilliy imtihonlar natijalariga nisbatan o‘quvchilar o‘zlashtirishining mutanosibligi; - o‘quvchilar o‘zlashtirishini ta’lim sifatining boshqa konseptual ko‘rsatkichlari bilan qiyosiy solishtirgan holda baholanganligi.						

2-jadvalning davomi

№	Mezonlarning nomlanishi	Ko‘rsatkichlar	Baholash darajasi					
			6	5	4	3	2	1
Bilim olish sharoiti va pedagogik faoliyatning samaradorlik mezonlari								
3.1	O‘qituvchilar tomonidan rejalar tuzilishi	- dasturlarni va kundalik faoliyatni rejalashtirish.						
3.2	O‘qitish jarayoni	- dars jarayonida qo‘llanilayotgan o‘qitish usullarining keng ko‘lamliligi va mavzu maqsadlariga mosligi; - ta’lim muhitida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasi-dagi o‘zaro samarali hamkorlikning yo‘lga qo‘yilganligi; - o‘quvchilarga yo‘naltiriladigan savollarning aniqligi, mantiqiyligi va aniq maqsadga qaratilganligi.						
3.3	O‘quvchilar tomonidan taqdim etilgan o‘quv materiallarini o‘zlashtirish va amaliyotda qo‘llash	- mavjud ta’lim muhitining o‘quvchilarni bilim olishga tizimli ravishda rag‘batlantira olish darajasining yuqoriligi; - qabul qilish (o‘qish) sur’atlarining mutanosibligi; - o‘quv natijalari uchun shaxsiy mas’uliyat, fikrlash mustaqilligi hamda o‘quv jarayonidagi faol ishtirok etish darajasining shakllanganligi; - o‘quv jarayonining boshqa barcha ishtirokchilari bilan o‘zaro ijobiy va unumli hamkorligining yo‘lga qo‘yilganligi.						

2-jadvalning davomi

№	Mezonlarning nomlanishi	Ko‘rsatkichlar	Baholash darajasi					
			6	5	4	3	2	1
3.4	O‘quvchilar ehtiyojlarini qondirish	- mustaqil topshiriqlar, faoliyat turlari hamda o‘quv adabiyotlari va qo‘llanmalarini erkin tanlash imkoniyatining mavjudligi; - Turli qobiliyat, ehtiyoj va qiziqishlarga ega bo‘lgan o‘quvchilarning individual ta’limiy ehtiyojlari to‘liq ta’minlanganligi; - o‘quv materiallarini o‘zlashtirish jarayonidagi shaxsiy va guruhli ehtiyoj-larining aniq belgilanganligi.						
3.5	O‘quvchilar faoliyati va ishini baholash tizimining o‘quv-tarbiya jarayonining uzviy hamda ajralmas tarkibiy qismi sifatida tashkil etish	- dars jarayonlarida qo‘llaniladigan baholash usullari hamda natijalarni hisobga olish (qayd etish) vositalarining o‘zaro mutanosibligi; - o‘quv-tarbiya jarayoni-ning har bir bosqichida o‘quvchilar faoliyati yuzasi-dan tizimli mulohazalar (xulosalar) va teskari aloqaning shakllantirilganligi; - monitoring va baholash natijasida to‘plangan tahliliy ma’lumotlardan ta’lim sifatini oshirish hamda strategik qarorlar qabul qilishda unumli foydalanilganligi.						
3.6	O‘quvchining o‘qish faoliyati (o‘zlashtirishi) to‘g‘risidagi hisobotlar	- monitoring natijalari bo‘yicha tahliliy hisobot-ning metodologik va tarkibiy jihatdan to‘g‘ri tuzilganligi;						

2-jadvalning davomi

№	Mezonlarning nomlanishi	Ko‘rsatkichlar	Baholash darajasi					
			6	5	4	3	2	1
		- o‘quvchining ta’limiy va o‘quv faoliyati natijalari to‘g‘risida ota-onalarga beriladigan tahliliy ma’lumotlarning davriyligi va ochiqligi; - maktab boshqaruv tizimining ota-onalar fikriga hamda ularning farzandi o‘qishi to‘g‘risidagi so‘rovlariga tezkor javob berish (munosabat bildirish) qobiliyatiga ega ekanligi.						
O‘quvchilar o‘zlashtirishini monitoring qilish va ularga ta’lim olishda yordam ko‘rsatish bo‘yicha mezonlar								
4.1	Maktabda ma’naviy-tarbiyaviy ishlarni tashkil etish	- o‘quvchilar to‘g‘risida tizimli g‘amxo‘rlik qilish, ularning maktab muhitidagi farovonligi va xavfsizligini (himoyalanganligini) ta’minlash choralarining ko‘rilganligi; - ijtimoiy himoyaga muhtoj ayrim o‘quvchilarning ma’naviy, moddiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bo‘yicha manzilli choralarning samaradorligi.						
4.2	O‘quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishini ta’minlash	- shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan amaliy tadbirlarning tizimli ravishda rejalashtirilganligi; - o‘quvchilar o‘rtasida bir-biriga nisbatan ijobiy munosabat, shaxsiy va ijtimoiy fazilatlar hamda ijobiy xarakter xususiyatlarining rivojlanganligi;						

2-jadvalning davomi

№	Mezonlarning nomlanishi	Ko‘rsatkichlar	Baholash darajasi					
			6	5	4	3	2	1
		- darsdan tashqari to‘garaklar, qo‘shimcha mashg‘ulotlar va o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini oshiruvchi boshqa faoliyat turlarining to‘g‘ri tashkil etilganligi.						
4.3	O‘quv rejasi doirasida ustoz-shogirdlik tizimi va o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish faoliyati	- o‘quvchilarning kelgusida ta’lim olish, kasbiy tayyorgarlikdan o‘tish yoki ishlash bo‘yicha to‘g‘ri yo‘nalish tanlashga tayyorgarlik ko‘rish darajasining shakllanganligi; - taqdim etilayotgan tahliliy ma’lumotlar hamda kasbiy tavsiyalarning aniqligi, ishonchliligi va haqiqatga mosligi; - ustoz-shogirdlik faoliyatining metodologik ko‘rsatmalarga hamda tegishli maslahatlarga asoslanganligi.						
4.4	O‘quvchilarning bilimi o‘sib borishi hamda yutuqlarini doimiy kuzatib borish (monitoring qilish) jarayoni	- ta’lim sifatini tizimli kuzatib borish (monitoring) tartibining aniq belgilanganligi; - o‘quvchilarning bilimi o‘sib borishi va shaxsiy rivojlanish jarayonlarini tavsiflovchi ko‘rsatkichlarning mavjudligi; - monitoring natijasida olingan ma’lumotlardan ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha ko‘riladigan amaliy choralarning natijadorligi.						

2-jadvalning davomi

№	Mezonlarning nomlanishi	Ko‘rsatkichlar	Baholash darajasi					
			6	5	4	3	2	1
4.5	O‘quv-tarbiya jarayonida o‘quvchilarga har tomonlama metodologik ko‘maklashish tizimi	- o‘quv jarayonida o‘zlashtirishi past bo‘lgan o‘quvchilarga tizimli yordam ko‘rsatish dasturlarining mavjudligi; - ko‘mak berilgan o‘quvchilarning bilimi o‘sib borishi va fanlarni o‘zlashtirish dinamikasining ijobiyligi; - o‘qitishda yordam ko‘rsatish bo‘yicha belgilangan strategik vazifalarning to‘liq bajarilganligi.						
4.6	Ta’limda alohida ehtiyojlari bo‘lgan va jismoniy imkoniyati cheklangan o‘quvchilarga oid qonunchilik hujjatlarining ijrosi	- maktab rahbariyati va pedagogik jamoaning inklyuziv ta’limga oid qonunchilikni hamda unga tegishli tartiblarni mukammal bilishi va tushunishi ko‘rsatkichligi; -ta’lim tashkilotida amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar va qonun talablarining to‘liq bajarilganligi; - qonunchilik ijrosini monitoring qilish va uni ta’minlash bo‘yicha ko‘riladigan amaliy choralarning bajarilganligi.						
4.7	Sog‘lig‘i cheklangan va nogironligi bo‘lgan o‘quvchilar uchun inklyuziv hamda qulay infratuzilmaviy sharoitlar yaratish	alohida ehtiyojlari va jismoniy imkoniyati cheklangan o‘quvchilarni sinflarga optimal joylashtirish tartibining hamda ularning xavfsiz va qulay muhitda bo‘lishini ta’minlash choralari ko‘rilganligi.						

2-jadvalning davomi

№	Mezonlarning nomlanishi	Ko‘rsatkichlar	Baholash darajasi					
			6	5	4	3	2	1
4.8	Mahalliy davlat hokimiyati organlari, yuqori turuvchi idoralar, ta’lim tashkilotlari, jamoat tashkilotlari hamda ish beruvchilar bilan strategik hamkorlik aloqalari	- mahalliy davlat hokimiyati organlari hamda yuqori turuvchi rahbar idoralar bilan samarali aloqalarning yo‘lga qo‘yilganligi; - boshqa ta’lim tashkilotlari bilan aloqalarning mavjudligi; - o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish hamda ijtimoiy moslashuvini ta’minlashda mahalliy jamoat tashkilotlari, muassasalar va ish beruvchilar bilan strategik hamkorlik aloqalarining o‘rnatilganligi.						
Ma’naviy-axloqiy tamoyillar va muhit mezonlari								
5.1	Ta’lim tashkiloti jamoasidagi ma’naviy-ruhiy muhit hamda o‘zaro kasbiy munosabatlar	- maktabga daxldorlik va faxrlanish hissining shakllanganligi; - ijobiy ma’naviy-madaniy muhitning mavjudligi; - o‘quvchilar va xodimlar uchun ma’naviy-axloqiy qoidalarning belgilanganligi; - o‘quvchilar va xodimlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar samaradorligi; - o‘quvchilarning xulq-atvori va ichki intizom darajasining yuqoriligi.						
5.2	Maktab rivojlanishidan kutilayotgan strategik natijalar va ularga erishish uchun zarur sharoitlarni yaratish	- kutilayotgan ish natijalari va rag‘batlantirish tizimidan unumli foydalanilganligi;						

2-jadvalning davomi

№	Mezonlarning nomlanishi	Ko‘rsatkichlar	Baholash darajasi					
			6	5	4	3	2	1
		- ishda va o‘qishda yuqori natijalarga erishishga qaratilgan ma’naviy-axloqiy tamoyillarni mustahkamlash uchun sharoitlar yaratilganligi.						
5.3	Ijtimoiy tenglik hamda adolat tamoyillarining ta’minlanishi	- jamoada va o‘quvchilar o‘rtasida tenglik hamda adolat hissining shakllanganligi; - barcha uchun teng imkoniyatlar va ijtimoiy adolatning to‘liq ta’minlanganligi.						
5.4	Ota-onalar, maktab kuzatuv (boshqaruv) kengashi va keng jamoatchilik bilan ijtimoiy-pedagogik hamkorlik modeli	- ota-onalarning maktab hayoti va farzandlari ta’limida faol ishtirok etishga rag‘batlantirilganligi; - ota-onalar bilan tizimli muloqot (kommunikatsiya) jarayonining yo‘lga qo‘yilganligi; - maktab kuzatuv (boshqaruv) kengashi bilan o‘zaro samarali aloqalarning mavjudligi; - maktabning mahalliy jamoatchilik (mahalla) rivojlanishidagi o‘rni va ta’siri yuqoriligi.						
Resurslar bilan ta’minlanganlik va qo‘shimcha investitsiyalarni jalb qilish mezonlari								
6.1	Maktab quvvati hamda moddiy-texnik ta’minot vositalarini muvofiqlashtirish	- Infratuzilma va moddiy-texnik bazaning yetarliligi, miqdori hamda belgilangan standartlarga muvofiqligi;						

2-jadvalning davomi

№	Mezonlarning nomlanishi	Ko‘rsatkichlar	Baholash darajasi					
			6	5	4	3	2	1
		- tashkilotda o‘quvchilar va xodimlar sog‘lig‘ini saqlash hamda xavfsizlikni ta’minlash choralarining ko‘rilganligi.						
6.2	Resurslar bilan ta’minlash	- maktabga ajratilgan mavjud moliyalashtirish hajmining ehtiyojlar uchun yetarliligi; - o‘quv-metodik va texnologik resurslarning yetarliligi, hajmi hamda sifat darajasining yuqoriligi.						
6.3	Maktab faoliyatini rivojlantirishga byudjetdan tashqari qo‘shimcha resurslar va investitsiyalarni jalb qilish	- maktabni rivojlantirish uchun ta’lim tarmog‘i resurslarining samarali jalb etilganligi; - hududiy va mahalliy hamjamiyat resurslaridan unumli jalb qilish choralarining ko‘rilganligi; - ota-onalarning jalb qilinganligi.						
6.4	Inson kapitalini boshqarish va kadrlar bilan tizimli faoliyat olib borish	- tashkilotning pedagogik va ma’muriy kadrlar bilan to‘liq ta’minlanganligi; - kadrlar tarkibining kasbiy tajribasi, malakasi va professionallik darajasining yuqoriligi; - zaruriy yo‘nalishlar bo‘yicha qo‘shimcha mutaxassis va kadrlarni jalb qilish imkoniyatlarining mavjudligi.						

2-jadvalning davomi

№	Mezonlarning nomlanishi	Ko‘rsatkichlar	Baholash darajasi					
			6	5	4	3	2	1
6.5	Xodimlarning mehnat samaradorligi monitoringi hamda mehnat resurslarini to‘g‘ri taqsimlash	- o‘qituvchilar faoliyatining samaradorligi va jamoaviy ishlash muhitining shakllanganligi; - sinflarni qoidalar asosida shakllantirish va ularni malakali o‘qituvchilar bilan ta’minlash tartibi mavjudligi; - o‘quvchilarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash maqsadida ichki va tashqi aloqalarning ta’minlanganligi; - yordamchi xodimlarning ish samaradorligi hamda ularni shtat birliklari bo‘yicha to‘g‘ri taqsimlanganligi.						
6.6	Pedagogik kadrlar tarkibi tahlili va ularning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirish	- kadrlar tarkibi tahlili, inson kapitalini rivojlantirish va maktabning o‘zini o‘zi baholashi o‘rtasidagi tizimli bog‘liqlikning mavjudligi; - mavjud kadrlar tarkibini hamda ularning salohiyatini tahlil qilish tartibining to‘g‘ri belgilanganligi; - pedagogik jamoaning kasbiy kadrlar tarkibini uzluksiz rivojlantirish choralarining samara-dorligi.						
6.7	Maktabning moliya-xo‘jalik tizimini oqilona va shaffof boshqarish	- maktab byudjetini oqilona va shaffof boshqarish maqsadida ko‘rilayotgan choralarning natijadorligi;						

2-jadvalning davomi

№	Mezonlarning nomlanishi	Ko‘rsatkichlar	Baholash darajasi					
			6	5	4	3	2	1
		- o‘quv-tarbiya va o‘qitish jarayonlarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida moliyaviy mablag‘lardan maqsadli foydalanilganligi.						
Boshqaruv, rahbarlik va ta’lim sifatini ta’minlash mezonlari								
7.1	Strategik vazifalarni belgilash hamda boshqaruvga oid rahbarlik ko‘rsatmalari (yo‘riqnomalarini) ishlab chiqish	- maqsadlarning aniqligi va muvofiqligi; - rahbarlik ko‘rsatmalarini ishlab chiqish tartibining samaradorligi						
7.2	Maktab faoliyatini ichki baholash va tizimli o‘zini o‘zi tahlil qilish (self-evaluation) mexanizmi	- tashkilot faoliyatini tizimli ravishda o‘zini o‘zi baholash tartibi (prosedurasi)ning to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganligi; - ish natijalarini muntazam kuzatib borish va mas’ul xodimlar tomonidan baholash mezonlarining shakllantirilganligi; - belgilangan ish standartlari va ta’lim sifati to‘g‘risida tahliliy hisobotlar tuzish tizimining mavjudligi.						
7.3	Tashkilot faoliyatidagi tizimli yaxshilanishlarni hamda istiqbolli rivojlanishni rejalashtirish	- maktabning o‘rta va uzoq muddatli istiqbolli rivojlanish rejasining mavjudligi; - kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan amaliy choralarni aniq rejalashtirish tizimining samaradorligi; - rejalashtirishning ta’sir etganlik darajasi.						

2-jadvalning oxiri

№	Mezonlarning nomlanishi	Ko‘rsatkichlar	Baholash darajasi					
			6	5	4	3	2	1
7.4	Maktab menejmentida samarali va demokratik rahbarlik (leadership) qilish	- rahbariyat va xodimlarning kasbiy kompetensiyasi (malakasi) hamda o‘z ishiga fidoyiligi; - jamoada odamlar bilan munosabatlarni va sog‘lom jamoaviy ishlash muhitini rivojlantirish choralarining ko‘rilganligi.						
7.5	Qo‘shimcha funksional majburiyatlari (vazifalari) bo‘lgan xodimlarning ish samaradorligi hamda ularni to‘g‘ri taqsimlash	- xodimlarning funksional majburiyatlari doirasi va amaliy ish natijalarining o‘zaro mutanosibligi; - har bir xodim va pedagogning individual (shaxsiy) ish samaradorligi ko‘rsatkichlarining yuqoriligi; - maktab boshqaruv jamoasi hamda pedagogik jamoaning umumiy jamoaviy samaradorlik darajasi ta’minlanganligi.						

Maktab jarayonlari sifatining ko‘rsatkichlari maktab tomonidan takomillashtirilishi yoki qayta ishlanishi mumkin. Ular butun maktab miqyosida (masalan, 4.4-bo‘lim “O‘quvchilarning bilimi o‘sib borishi hamda yutuqlarini doimiy kuzatib borish (monitoring qilish) jarayoni”), shuningdek, alohida sinf darajasida (masalan, 3.4-bo‘lim “O‘quvchilar ehtiyojlarini qondirish”) va hatto aniq vazifalar darajasida (masalan, 2.1-bo‘lim “O‘zlashtirishning umumiy sifati” yoki 5.2-bo‘lim “Maktab rivojlanishidan kutilayotgan strategik natijalar va ularga erishish uchun zarur sharoitlarni yaratish”) qo‘llanilishi mumkin.

Sifat ko‘rsatkichlarini amaliyotda qo‘llash hamda maktab holatini o‘z-o‘zini diagnostika qilish orqali baholash jarayonida quyidagi uchta asosiy savolga javob berish talab etiladi:

1. Biz qanday ishlayapmiz? Buning uchun maktab oldiga qo‘yilgan vazifalardan kutilayotgan natijalarga e’tibor qaratish kerak.

2. Buni qanday bilib olishimiz mumkin? Buning uchun quyidagilar zarur:

tegishli sifat ko‘rsatkichlarini ***tanlash;***

boshqaruv organlarining tegishli tavsiyalariga tayangan holda yoki boshqa maktablar misollarini o‘z vaziyatingizga qo‘llagan holda ko‘rib chiqilishi kerak bo‘lgan ishdagi jihatlarni aniqlash;

qayd etilgan natijalar va faoliyatdagi jihatlar mavjudligi hamda ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatish uchun qanday faktik ma’lumotlar kerak bo‘lishini o‘zingiz uchun hal qilish;

ushbu faktik ma’lumotlarni to‘plash va boshlang‘ich hamda namunaviy darajalar tavsiflariga tayangan holda, o‘zingiz kuzatayotgan narsaning sifati haqida xulosa chiqarish.

3. Biz nima qilmoqchimiz? Buning uchun quyidagilar zarur:

ishdagi asosiy kuchli tomonlarni va yaxshilashni talab qiladigan sohalarni ***aniqlash;***

maktab jamoasi bilan qayta aloqani o‘rnatish va hammaga o‘z fikrini bildirish imkoniyatini berish;

maktabning bugungi holati to‘g‘risida hisobotni ***shakllantirish;***

maktabni rivojlantirish rejasiga kiritilishi kerak bo‘lgan birinchi navbatdagi vazifalarni aniqlash.

ASOSLOVCHI MATERIALLARNI TO‘PLASH.

Sifat ko‘rsatkichlarini baholashga oid birlamchi ma’lumotlar quyidagi usullar orqali to‘planadi:

1. Shaxslarni quyidagilar orqali so‘rovnomadan o‘tkaziladi:

– individual intervyular;

– guruhli muhokamalar;

– masalani o‘rganish bo‘yicha ishchi guruhlar;

– tadqiqotlar va o‘quvchilar va ota-onalar so‘rovnomasi;

– jamoa yig‘ilish kengashi.

2. Hujjatlar va ma’lumotlar manbalari ko‘rib chiqiladi:

– maktab tomonidan to‘ldiradigan va taqdim etiladigan ta’lim tizimidagi statistik kuzatuv shakllari;

– chorak, yarim yillik, yillik o‘zlashtirish va davomatga oid hisobotlar;

– o‘quvchilarning ishlanmalari;

– ota-onalar va maktab boshqaruv kengashining hisobotlari;

– o‘quv dasturi va ish rejalari;

– maktab ish rejasining bajarilishi to‘g‘risida hisobotlar;

– yig‘ilish bayonnomalari;

– maktab o‘qituvchilariga rag‘batlantirish (ustama, mukofot) bo‘yicha hujjatlar.

3. Bevosita kuzatish usullaridan foydalaniladi:

– alohida maqsadli o‘quvchilar faoliyatini kuzatish;

– sinf jamoasining umumiy ish jarayonini tahlil qilish;

– darslarga jarayoniga kirib, pedagogik kuzatuvlarni olib borish;

– darslarni videotasvirga olgan holda refleksiya qilish;

– tajriba almashish maqsadida dars o‘tiladigan sinflarni tanlab olish;

– juftlikda (kollegial) bir-birining darslarini kuzatish;

– boshqa o‘qituvchilar bilan hamkorlikda (yonma-yon) faoliyat yuritish.

4. Quyidagi ma’lumotlar tahlil qilinadi:

– Oldingi ko‘rsatkichlarga nisbatan o‘quvchilar o‘zlashtirishida ijobiy dinamikasi;

– Maktab strategik maqsadlariga erishish darajasining tizimli monitoring qilib borish;

– Belgilangan shakldagi baholash sinovlari va imtihonlar natijalarining ijobiyligini ko‘rib chiqish;

– Boshlang‘ich va o‘rta ta’lim maktab bosqichlarida o‘quvchilar o‘zlashtirish darajasi yuqori bo‘lishini ta’minlash;

– Milliy va hududiy darajada to‘plangan statistik ma’lumotlarning o‘zaro qiyoslash;

– Ta’lim tashkiloti faoliyatida va ish sifatidagi o‘sish ko‘rsatkichlarining barqarorligi.

Keyin maktab jarayonlari sifatini baholashning alohida yo‘nalishlarini batafsil ko‘rib chiqiladi.



2.2. O‘QUV JARAYONINI TASHKIL ETISH SIFATINI DIAGNOSTIKA QILISH (ANIQLASH)

O‘z-o‘zini diagnostika qilishni talab etadigan markaziy soha — bu maktabda o‘qitishni tashkil etish jarayonidir. Hali 2012-yilda Maykl Barber natijalarni yaxshilashning yagona yo‘li — o‘qitish sifatini oshirish ekanligini aytgan edi. O‘qitish sifatini oshirish uchun maktablar sinfxonalarda sodir bo‘layotgan jarayonlarga ta’sir ko‘rsatish yo‘llarini topishlari kerak [12].

Quyida o‘quv jarayonini tashkil etishni quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha sifat ko‘rsatkichlariga tayanib qanday tahlil qilish mumkinligi ko‘rsatilgan:

1. *O‘qitishni rejalashtirish.*
2. *O‘qitish jarayoni.*
3. *Materialni o‘zlashtirish ko‘nikmalari va motivatsiya.*
4. *O‘quvchilar ehtiyojlarini qondirish.*
5. *O‘quvchilar faoliyatini o‘quv jarayonining bir qismi sifatida baholash.*
6. *O‘quvchining o‘qishi to‘g‘risidagi hisobotlar, ota-onalar bilan hamkorlik.*
7. *O‘sish va yutuqlarni kuzatib borish.*
8. *O‘quv jarayonida ko‘maklashish.*
9. *Kutilayotgan natijalar va ularga erishish uchun shart-sharoitlar yaratish.*

Dars berish va o‘qitish o‘quvchilarning natijalari yaxshilanishi uchun o‘zgarishlar sodir bo‘lishi shart bo‘lgan markaziy nuqtalar hisoblanadi. Ular sinchiklab kuzatish hamda tahlil qilishni talab etadi. O‘quv jarayonini tashkil etishning ikki darajasini tavsiflab o‘tamiz: mo‘ljal va namuna bo‘lib xizmat qila oladigan yuqori daraja hamda boshlang‘ich (start) nuqtasi sifatida belgilash mumkin bo‘lgan boshlang‘ich daraja. Boshlang‘ich darajaning tavsifi muammoli sohalarni va zaruriy o‘zgarishlarni aniqlash imkonini beradi. Har bir ko‘rsatkich uchun yuqori darajaning batafsil tavsifi o‘zgarishlarni rejalashtirishda asos bo‘lib xizmat qiladi, shuningdek, o‘qituvchiga kasbiy malakasini oshirish va kasbiy ko‘nikmalarini takomillashtirish uchun ma’lumot beradi.

Maktabning ayni vaqtdagi holatini tahlil qilishda qayd etilgan sohalarda diagnostika o‘tkazish, ularning real darajasini aniqlash, mavjud kamchiliklar va kutilayotgan ijobiy

dinamikani belgilab olish zarur. Maktabning ta'limiy natijalarni yaxshilash dasturi amalga oshirilishi jarayonida o'quv jarayonini tashkil etishda siljishlar bo'layotganini aniqlash uchun yuz berayotgan o'zgarishlarni sinchiklab kuzatib borish lozim. Quyida keltirilgan tavsif ham alohida o'qituvchining faoliyatiga, ham umuman maktabga tegishlidir.

1. O'QITISHNI REJALASHTIRISH

O'quv fanlarini o'qitishni va o'qituvchining kundalik faoliyatini rejalashtirish.

Yuqori daraja. Tavsif

O'qituvchining ish rejalari o'quvchilar nimalarni, qanday va qachon o'rganishi kerakligini qisqa va aniq shaklda belgilab beradi. Ularda kutilayotgan o'quv natijalari hamda ular qanday baholanishi aniq ko'rsatiladi. Maktab xodimi o'quvchilarning ehtiyojlarini aniqlash va ularning keyingi qadamlarini rejalashtirish uchun baholash natijalaridan samarali foydalanadi. O'quvchilarning mashg'ulotlari, jumladan, uy vazifalari ham o'quvchilar va o'qituvchilarning vaqtidan unumli foydalanadigan tarzda rejalashtiriladi. Shuningdek, rejalarni hamkasblar bilan birgalikda tuzish usuli ham qo'llaniladi.

Boshlang'ich daraja. Tavsif

O'qituvchining ish rejalari o'quvchilar nimalarni, qanday va qachon o'rganishi kerakligi haqida faqat umumiy yoki to'liq bo'lmagan tasavvurni beradi. Ularda rejalarning qanday bajarilishiga yetarlicha e'tibor berilmaydi. O'quv jarayonini tashkil etishda o'quvchilarning individual ehtiyojlarini qondirish hamda ularning keyingi ta'lim trayektoriyasini belgilash jarayoni tizimli asoslanmagan bo'lib, amaliyotda baholash natijalariga faqat yuzaki (umumiy) havolalar qilish bilan cheklaniladi. O'quvchilarning mustaqil mashg'ulotlari, jumladan, uy vazifalari ham har doim ham o'quvchi va o'qituvchilarning vaqt resurslaridan unumli foydalanishga xizmat qilmaydi, ya'ni rejalashtirish mexanizmi samarasiz tashkil etilgan. Bundan tashqari, ta'lim sifatini oshirishda muhim hisoblangan pedagoglarning o'zaro hamkorlikda darslarni rejalashtirish (collaborative planning) metodi maktab jamoasida doimiy yo'lga qo'yilmagan.

Eslatmalar:

1. Istiqbolli rejalar hafta, oy, yarim yil va bir o'quv yili uchun bosqichma-bosqich ishlab chiqiladi;

2. Alohida ta'lim ehtiyojlariga ega hamda sog'lig'i bo'yicha imkoniyati cheklangan o'quvchilar uchun individual ta'lim dasturlari ishlab chiqiladi;

3. O'qitilayotgan ta'lim tili ona tilisi bo'lmagan o'quvchilar uchun ham moslashtirilgan maxsus o'quv rejalari shakllantiriladi;

4. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) tizimli qo'llash hamda raqamli resurslardan unumli foydalanish choralari oldindan rejalashtiriladi.

2. O‘QITISH JARAYONI

Ushbu ko‘rsatkich quyidagi mavzularni qamrab oladi:

– o‘qitish usullari;

– o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik;

– O‘quvchilarga yo‘naltirilgan savollarning aniqligi va maqsadga qaratilganligi.

Yuqori daraja. Tavsif

O‘qitish usullari, jumladan, axborot texnologiyalarini qo‘llash o‘quvchilar ehtiyojlariga mos keladi. Ular butun sinf, guruh yoki alohida o‘quvchilar ishtirokidagi bevosita ish imkoniyatlarini maksimal darajada oshiradi. Uy vazifalari yaxshi rejalashtiriladi va sinfdagi ishlar bilan chambarchas bog‘lanadi. O‘qituvchilar o‘quvchilarning mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini muvaffaqiyatli rivojlantiradilar.

Pedagoglar dars maqsadlarini o‘quvchilarga tushuntirib beradilar. Ularning tushuntirishlari, ko‘rsatmalari va yo‘riqnomalari aniq hamda o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos keladi. O‘quvchilar bilan olib boriladigan muhokamalar o‘quv jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladi va ishonchni mustahkamlaydi. O‘quvchilar tomonidan bildirilgan takliflar rag‘batlantiriladi va qadrlanadi. Maqtovdan samarali foydalaniladi.

Savol-javoblar o‘qituvchilar tomonidan mahorat bilan o‘tkaziladi, o‘quvchilarning javoblari tinglanadi va sinf ishida faol qo‘llaniladi. Barcha o‘quvchilarni ishga jalb qilish uchun choralar ko‘riladi. Agar o‘quvchilarning bilim va tushunchalarida bo‘shliqlar aniqlansa, fanni o‘rganish qayerda noto‘g‘ri ketganini aniqlash, xatolarni topish va tuzatish bo‘yicha choralar ko‘riladi.

Boshlang‘ich daraja. Tavsif

O‘qitish usullari, jumladan, axborot texnologiyalarini qo‘llash umuman olganda to‘g‘ri, biroq cheklangan darajada foydalaniladi. Ular har doim ham o‘quvchilar ehtiyojlarini hisobga olgan holda tanlanmaydi. Qo‘llanilayotgan usullar butun sinf, guruh yoki alohida o‘quvchilar bilan bevosita ishlash imkoniyatlarini o‘z ichiga olmaydi yoki ulardan foydalanmaydi. Uy vazifalari berilsa-da, ular har doim ham yaxshi rejalashtirilmagan va sinfdagi ishlar bilan chambarchas bog‘lanmagan. O‘qituvchilar o‘quvchilarning mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yetarlicha e’tibor bermaydilar.

O‘quvchilar ba’zan dars maqsadlarini tushunmaydilar. O‘qituvchilarning tushuntirishlari, ko‘rsatmalari va yo‘riqnomalari ko‘pincha qo‘shimcha izohlarni talab qiladi. O‘quvchilar bilan olib boriladigan muhokamalar har doim ham o‘quv jarayonini takomillashtirishga yoki ishonchni mustahkamlashga xizmat qilmaydi. O‘quvchilar tomonidan bildirilgan takliflarni rag‘batlantirish va qadrlashni xohlamaslik, maqtovdan juda kam yoki asossiz foydalanish kabi kamchiliklar ko‘zga tashlanadi.

O‘qituvchilar tomonidan o‘tkaziladigan savol-javoblar jarayonida o‘quvchilardan faqat yuzaki javoblar talab qilinadi, pedagoglarning yo‘naltiruvchi roli sezilmaydi. O‘qituvchilar o‘quvchilarning javoblarini tinglamasliklari, ulardan sinf ishida foydalanmasliklari va ushbu

jarayonga boshqa o‘quvchilarni jalb qilmasliklari mumkin. Kamchiliklar qatorida o‘quvchilarning bilim va tushunchalaridagi bo‘shliqlarni aniqlay olmaslik ham qayd etiladi.

3. MATERIALNI O‘ZLASHTIRISH KO‘NIKMALARI VA MOTIVATSIYA

Ushbu ko‘rsatkich quyidagi mavzularni qamrab oladi:

– o‘quvchilarni o‘qishga undaydigan va rag‘batlantiradigan ta’lim muhiti;

– o‘qish sur’atlari;

– o‘qishga nisbatan shaxsiy mas’uliyat, fikrlash mustaqilligi va o‘quv jarayonida faol ishtirok etish;

– o‘zaro hamkorlik (muloqot).

Yuqori daraja. Tavsif

Sinfdagi muhit o‘qishga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otadi va rag‘batlantiradi. O‘quvchilarga taklif etilayotgan materiallar ularning qiziqishlari, avvalgi tajribasi va kelgusi rivojlanishini hisobga oladi. O‘quvchilar rag‘batlantirish orqali o‘qituvchining doimiy nazoratisiz yaxshi va tashabbuskorlik bilan ishlashga undaladi.

O‘qitish sur’atlari o‘quvchilarga yaxshi natijalarga erishish imkoniyatini beradi.

O‘quvchilar o‘z o‘qishlari uchun mas’uliyatni o‘z zimmalariga oladilar va unda faol ishtirok etadilar. O‘quvchilar ko‘pincha mustaqil fikrlaydilar, muammolar, savollar va amaliy ishlar ustida bosh qotiradilar. Ular o‘z o‘qishlarida nimani yaxshilashlari kerakligini juda yaxshi tushunadilar. O‘quvchilar eng turli sharoitlarda hamda tarkibi va hajmi bo‘yicha farq qiluvchi guruhlarda bir-birlari bilan hamkorlikda ishlaydilar.

Boshlang‘ich daraja. Tavsif

Sinfdagi muhit o‘qishga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otmaydi va rag‘batlantirmaydi. O‘quvchilarga taklif etilayotgan materiallar, umuman olganda, ularning qiziqishlari, avvalgi tajribasi va kelgusi rivojlanishini hisobga oladi, biroq ularda bir yoki bir nechta jihatlar tushirib qoldirilgan yoki haddan tashqari bo‘rttirib ko‘rsatilgan. Garchi ko‘pchilik o‘quvchilar o‘qituvchining nazoratisiz yaxshi ishlasalar-da, boshqalarning diqqatini osongina chalg‘itish mumkin.

O‘qitish sur’atlari ko‘pincha juda sekin yoki juda tez bo‘lib, o‘quvchilarga ish jarayonida yaxshi natijalarga erishish imkoniyatini har doim ham beravermaydi.

O‘quvchilar ba’zan o‘z o‘qishlari uchun mas’uliyatni o‘z zimmalariga oladilar va unda faol ishtirok etadilar. Ular o‘qituvchi so‘ragan narsani bajaradilar, lekin ko‘pincha passiv tinglovchi yoki kuzatuvchi bo‘lib qoladilar yoxud chuqur fikrlashni talab qilmaydigan topshiriqlar bilan shug‘ullanadilar. Ko‘p hollarda ular o‘z o‘qishlarida nimani yaxshilashlari kerakligini tushunmaydilar.

O‘quvchilar bir-birlari bilan kamdan-kam hollarda hamkorlikda ishlaydilar, o‘quvchilarning ishchi guruhlari o‘z tarkibi va hajmi bo‘yicha farqlanmaydi.

4. O‘QUVCHILAR EHTIYOJLARINI QONDIRISH

Ushbu ko‘rsatkich quyidagi mavzularni qamrab oladi:

– Dars topshiriqlari, faoliyat turlari hamda o‘quv adabiyotlari va qo‘llanmalarini to‘g‘ri tanlash;

– turli qobiliyat va moyilliklarga ega bo‘lgan o‘quvchilarning ehtiyojlarini ta’minlash;

– o‘quvchilarning individual ta’limiy ehtiyojlarini aniqlash.

Yuqori daraja. Tavsif

Topshiriqlar va o‘quv faoliyati alohida o‘quvchilarning ehtiyojlari bilan uyg‘un tarzda bog‘langan, o‘quv adabiyotlari va qo‘llanmalari to‘g‘ri tanlangan, o‘qitish usullari esa o‘quvchilarning rivojlanishiga xizmat qiladi. O‘quvchilar ta’lim maqsadlarini belgilashda bevosita ishtirok etadilar. Fanlararo hamda amaliy tajriba bilan uzviy aloqalar o‘rnatilgan. O‘quvchilarning til va madaniy tajribasidan to‘g‘ri foydalaniladi.

Topshiriqlar va o‘qitish usullarining turlicha imkoniyat hamda qiziqishlarga ega bo‘lgan alohida o‘quvchilar yoki o‘quvchilar guruhlari xususiyatlariga mos kelishi tizimli tashkil etilgan.

O‘qish jarayonida yuzaga keladigan ehtiyojlar muntazam ravishda aniqlanadi, to‘sqinliklar esa qat’iyat bilan bartaraf etiladi. O‘qituvchilar va boshqa mutaxassislar tomonidan o‘quvchilar ehtiyojlarini qondirishda samarali yordam ko‘rsatiladi.

Boshlang‘ich daraja. Tavsif

Topshiriqlar va o‘quv faoliyatini alohida o‘quvchilarning ehtiyojlariga moslashtirish bo‘yicha muayyan choralar ko‘rilmoqda, biroq o‘qitish usullari har doim ham o‘quvchilarga qo‘yilgan maqsadlarga erishishda yordam beravermaydi. O‘qituvchilar o‘quvchilarga ta’lim maqsadlari haqida ma’lumot bersalar-da, ularni ushbu maqsadlarni belgilash jarayoniga jalb etmaydilar. Ayrim topshiriqlar va faoliyat turlari ta’limning boshqa sohalaridan ajratilgan holda bajariladi. O‘quvchilarning til va madaniy tajribasi har doim ham to‘g‘ri inobatga olinmaydi.

Turlicha imkoniyat yoki qiziqishlarga ega bo‘lgan alohida o‘quvchilar yoxud o‘quvchilar guruhlari ehtiyojlari yetarli darajada ta’minlanmagan va talab qilinadigan natijalarga erishilmagan.

O‘qish jarayonida yuzaga keladigan ehtiyojlar aniqlansa-da, bu ish tizimli ravishda amalga oshirilmaydi. Ta’lim yo‘lidagi to‘sqinliklarni bartaraf etish uchun kam choralar ko‘rilmoqda. O‘qituvchilar va boshqa mutaxassislar tomonidan o‘quvchilar ehtiyojlarini qondirishda ko‘rsatilayotgan yordam hajmi hamda samaradorligi jihatidan yetarli darajada shakllanmagan.

Eslatmalar:

1. Madaniyati, tili va hayotiy tajribasida farqlar bo‘lgan har

ikki jinsdagi o‘quvchilar uchun teng imkoniyatlarni, individual ta’lim dasturlari hamda mutaxassislar tavsiyalarining bajarilishini ta’minlash zarur.

2. Qochqinlar, ota-onalari safarda bo‘lgan bolalar, vasiylikdagi bolalar, ta’lim tili ona tilisi bo‘lmaganlar, jismoniy nuqsoni bor bolalar, kasalligi tufayli yoki oilaviy sharoitga ko‘ra darslarga muntazam qatnasha olmaydiganlar, shuningdek, boshqa har qanday potensial zaif guruhdagi o‘quvchilarning ehtiyojlarini aniqlash va ularga yordam ko‘rsatish zarur.

5. ISH FAOLIYATINI BAHOLASH O‘QUV JARAYONINING BIR QISMI SIFATIDA

Ushbu sifat ko‘rsatkichi quyidagi mavzularni qamrab oladi:

– baholash usullari va tahlil qilish (muntazam qayd etib borish) vositalari;

– o‘quv jarayonidagi mulohazalar (xulosalar);

– baholashga oid ma’lumotlardan foydalanish.

Yuqori daraja. Tavsif

Baholash usullari ta’lim maqsadlariga to‘liq mos keladi. O‘quv dasturida belgilangan vazifalarning bajarilishi to‘g‘risida asosli xulosalar chiqarish uchun yetarli miqdorda baholash vositalaridan foydalaniladi. Baholash ma’lumotlarini umumlashtirish imkonini beruvchi tegishli izohlar yuritiladi. Zarurat tug‘ilganda test sinovlaridan samarali foydalaniladi.

O‘quvchilarni yaxshi taniydigan o‘qituvchilar har bir o‘quvchi asosiy o‘quv topshiriqlarini qanday bajarayotganini va qanday qiyinchiliklarga duch kelayotganini aniqlashga doimiy ravishda intiladilar. O‘qituvchilar xulosalarining keyingi tahlil va qayta baholashdan o‘tkazilishini ta’minlash bo‘yicha choralar ko‘riladi.

O‘qituvchilar o‘quvchilarga ularning rivojlanishi hamda o‘zlashtirishi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni muntazam ravishda yetkazib turadilar. O‘quvchilar o‘sib borish ko‘rsatkichlari muhokamasida bevosita ishtirok etadilar va ularning fikrlari inobatga olinadi. Alohida yutuqlarni baholashga hamda o‘qishdagi keyingi qadamlarni belgilashga katta e’tibor qaratiladi. O‘quvchilar va ota-onalarni xabardor qilib borish hamda bir bosqichdan boshqasiga o‘tishda ta’limning uzluksizligini ta’minlash uchun qisqa ko‘chirmalar va davriy qaydlardan foydalaniladi. O‘qituvchilar o‘qitish samaradorligini aniqlash maqsadida baholash ma’lumotlaridan har tomonlama foydalanadilar.

Boshlang‘ich daraja. Tavsif

Baholash usullarining cheklangan doirasidan foydalaniladi. Ularning ayrimlari o‘quvchilarning ta’limiy yutuqlari va rivojlanish dinamikasini ishonchli baholash imkonini bermaydi. Baholash natijalari qayd etiladi, biroq ayrim muhim jihatlar bo‘yicha ular yetarli ma’lumot bermaydi yoki amaliy qarorlar qabul qilish uchun yetarli darajada foydali emas. Testlar ko‘pincha rasmiy talabni bajarish maqsadida o‘tkaziladi, natijada ularning o‘tkazilish vaqti

hamda natijalari o‘quvchilarning rivojlanish dinamikasini baholash bilan uzviy bog‘lanmaydi.

O‘qituvchilar o‘quvchilarni turlicha (bir xil bo‘lmagan darajada) taniydilar: ularning kuchli va kuchsiz tomonlari ba’zan e’tibordan chetda qoladi, “shu yerda va hozir” qilingan xulosalar esa yuzaki bo‘ladi. O‘qituvchilar xulosalarini keyinchalik tahlil qilish va baholash choralarini tanlashda jiddiy kamchiliklar mavjud.

O‘qituvchilar ayrim hollarda o‘quvchilar bilan ularning o‘quvdagi yutuqlari va rivojlanishi haqida suhbatlashadilar, biroq bunday qayta aloqa muntazam yo‘lga qo‘yilmagan. Mavjud qayta aloqa o‘quvchilarning rivojlanish dinamikasini kuzatish yoki keyingi o‘quv maqsadlarini belgilash uchun yetarli darajada qo‘llanilmaydi. Baholash natijalari qayd etiladi, ammo ular o‘quv jarayonining barcha muhim jihatlarini to‘liq aks ettirmaydi. Mazkur ma’lumotlardan o‘quvchilarga o‘zlashtirish natijalari haqida muntazam ma’lumot berishda kam foydalaniladi hamda ular ota-onalar uchun tayyorlanadigan hisobotlar uchun yetarli asos bo‘la olmaydi. Shuningdek, baholash natijalaridan o‘qitish samaradorligini tahlil qilish va o‘quv jarayonini rejalashtirishda ham to‘liq foydalanilmaydi.

6. O‘QUVCHINING O‘QISHI TO‘G‘RISIDAGI HISOBOTLAR, OTA-ONALAR BILAN HAMKORLIK

Ushbu ko‘rsatkich quyidagi mavzularni qamrab oladi:

– hisobot tuzish;

– har bir o‘quvchining o‘qishi to‘g‘risida ota-onalarga uzatiladigan ma’lumotlar;

– maktabning ota-onalar fikr-mulohazalariga va ularning ma’lumot olishga bo‘lgan so‘rovlariga javob bera olish qobiliyati.

Yuqori daraja. Tavsif

Ota-onalar farzandlarining o‘qishdagi o‘sishi bo‘yicha maktab bilan muloqot qilishga ijobiy ma’noda undaladi, maktab o‘qituvchilar bilan maslahatlashuvlarni mamnuniyat bilan o‘tkazadi. Maktabning rasmiy tadbirlari yaxshi tashkil etilgan, uning barcha qoidalari va yo‘riqnomalari aniq shaklda yetkaziladi.

Ota-onalar uchun yozma hisobotlar oson o‘qiladigan shaklda tuziladi, ularda har bir o‘quvchining o‘quv rejasiga kiritilgan barcha fanlar bo‘yicha o‘zlashtirishi to‘g‘risida tushunarli ma’lumotlar va batafsil tafsilotlar, jumladan, bolaning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishi haqidagi ma’lumotlar keltiriladi hamda har bir o‘quvchining ta’limdagi keyingi bosqichlari belgilab beriladi. Ushbu hisobotlarga ota-onalarning fikr-mulohazalari mamnuniyat bilan qabul qilinadi.

Ota-onalarning bolaning o‘zlashtirishi va o‘sishi borasidagi fikrlari hamda so‘rovlari o‘z vaqtida va sinchiklab ko‘rib chiqiladi. Maktab ularga faol munosabat bildiradi (javob qaytaradi).

Boshlang‘ich daraja. Tavsif

Ota-onalarga farzandlarining o‘qishdagi o‘sishi haqida ma’lumot beriladi, biroq ular muloqotga faol jalb qilinmaydi. Maktab o‘qituvchilar bilan maslahatlashish imkoniyatlarini

taqdim etadi, lekin bu kamdan-kam hollarda amalga oshiriladi va/yoki bunday tadbirlar haqidagi xabarlar tizimsiz xarakterga ega.

Ota-onalar uchun yozma hisobotlar tushunarsiz yoki noqulay, o‘qish qiyin bo‘lgan shaklda tuziladi. Ularda har bir o‘quvchining o‘quv rejasiga kiritilgan ko‘plab fanlar bo‘yicha o‘zlashtirishi haqida ma’lumotlar keltiriladi, biroq o‘quvchining ta’limdagi keyingi bosqichlari belgilab berilmaydi. Hisobotlarda o‘quvchilarning bilimi, tushunchasi va ko‘nikmalarining rivojlanishiga emas, balki ularning o‘qishga bo‘lgan munosabatiga haddan tashqari ko‘p urg‘u beriladi. Ota-onalardan ushbu hisobotlarga fikr-mulohaza bildirish so‘ralmaydi.

Ota-onalarning bolaning o‘zlashtirishi va o‘sishi borasidagi so‘rovlariga umumiy xarakterdagi javoblar beriladi, ota-onalar tomonidan bildirilgan fikrlar esa muhim deb hisoblanmaydi.

7. O‘SISH VA YUTUQLARNI KUZATIB BORISH

Ushbu ko‘rsatkich quyidagi mavzularni qamrab oladi:

– o‘sish ko‘rsatkichlarini kuzatish tartibi;

– o‘quvchilarning o‘sishi va rivojlanishi tavsifnomalari;

– olingan ma’lumotlardan foydalanish bo‘yicha ko‘riladigan choralar.

Yuqori daraja. Tavsif

Pedagoglar alohida o‘quvchilarning o‘sishini tizimli ravishda kuzatib boradilar, baholash natijalarini muntazam o‘rganadilar. Rejalashtirilgan va erishilgan natijalar muayyan vaqt oralig‘ida o‘zaro solishtiriladi, tendensiyalar (ijobiy yoki salbiy) esa keyingi harakatlarni kelishib olish uchun o‘quvchilar va zarurat tug‘ilganda ota-onalar bilan suhbatlar davomida muhokama qilinadi. O‘quvchilarga o‘z o‘sish ko‘rsatkichlarini baholash va o‘quv rejalariga takliflar kiritish imkoniyati berilgan. O‘quvchilar tomonidan rejalashtirilgan va erishilgan barcha natijalar tizimli ravishda kuzatib boriladi. Shaxsiy hujjatlar yig‘majildida (portfolio) o‘quvchilarning individual qiziqishlari, ularning o‘sishi va o‘zlashtirishini aks ettiruvchi har tomonlama ma’lumotlar to‘planadi. Ma’lumotlarni to‘plashda o‘quvchilarning o‘zlari ham faol ishtirok etadilar. Zarurat bo‘lganda, ushbu turdagi shaxsiy hujjatlar o‘quvchining maktabdan tashqaridagi yutuqlarini tasdiqlovchi dalil bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Pedagoglar to‘plangan ma’lumotlardan ta’lim maqsadlarini muhokama qilish va o‘quvchilarga o‘zlarining shaxsiy o‘quv rejalarini ishlab chiqish imkoniyatini berish uchun samarali foydalanadilar. Ma’muriyat, sinf rahbarlari, fan o‘qituvchilari, qo‘shimcha mutaxassislar va ota-onalar o‘rtasida o‘quvchilarning yutuqlari to‘g‘risida samarali ma’lumot almashinuvi yo‘lga qo‘yilgan. O‘quvchilar o‘z shaxsiy hujjatlaridagi ma’lumotlardan foydalanadilar. Maktab xodimlari ushbu ma’lumotlardan o‘quvchilarga tavsifnomalar tuzishda tizimli ravishda foydalanadilar.

Boshlang‘ich daraja. Tavsif

Pedagoglar alohida o‘quvchilarning o‘sishini muntazam kuzatib bormaydilar va baholash natijalarini har doim ham sinchiklab o‘rganmaydilar. Erishilgan natijalarni rejalashtirilgan natijalar bilan solishtirish vazifalari rejaga kiritilgan, biroq ular tizimsiz va noaniq xarakterga ega. O‘quvchilarga o‘z o‘sish ko‘rsatkichlarini baholash va o‘qishdagi keyingi qadamlarini rejalashtirish uchun to‘liq bo‘lmagan (cheklangan) imkoniyat berilgan.

O‘quvchilarning yutuqlari to‘g‘risidagi amaliy ma’lumotlarning faqat cheklangan qismi qaydlarda aks etadi. Ularda o‘quvchilarning bir necha yillik o‘zlashtirishi haqidagi ma’lumotlar mavjud, biroq motivatsiya, biror-bir mashg‘ulotga bo‘lgan qiziqish, ko‘nikma va hobbilariga oid ma’lumotlar yo‘q yoki juda kam. Shaxsiy hujjatlar yig‘majildida o‘quvchining maktabdan tashqaridagi yutuqlari haqida ma’lumotlar yetarli emas.

Pedagoglar mavjud ma’lumotlardan juda kam darajada foydalanadilar. Shaxsiy hujjatlarda o‘zlashtirish va o‘zini o‘zi baholashga oid amaliy ma’lumotlar keltirilgan bo‘lsa-da, ulardan ta’lim maqsadlarini muhokama qilish va o‘quvchilarga o‘zlarining shaxsiy o‘quv rejalarini ishlab chiqish imkoniyatini berish uchun kamdan-kam hollarda foydalaniladi. Ma’muriyat, sinf rahbarlari, fan o‘qituvchilari, qo‘shimcha mutaxassislar va ota-onalar o‘rtasidagi aloqa cheklangan. O‘quvchilar ma’lumotlardan foydalanish imkoniyatiga ega emaslar. Maktab xodimlari ushbu ma’lumotlardan o‘quvchilarga tavsifnomalar tuzishda tizimli ravishda foydalanmaydilar.

Eslatma

O‘quvchilarning o‘quv rejalarini ko‘rib chiqishda, zarurat bo‘lganda, agar mavjud bo‘lsa, shaxsiy o‘quv rejalari va / yoki individual ta’lim dasturlari to‘g‘risida eslatib o‘tish lozim.

8. O‘QUV JARAYONIDA KO‘MAKLASHISH

Ushbu ko‘rsatkich quyidagi mavzularni qamrab oladi:

– o‘quv jarayonida o‘quvchilarga ko‘maklashish dasturlari;

– o‘quvchilarning o‘sishi va o‘zlashtirishi;

– o‘qishda yordam ko‘rsatish.

Yuqori daraja. Tavsif

Dasturlar o‘quvchilarga o‘qishda maksimal darajada o‘sishga erishish imkoniyatini beradigan tarzda yaxshi rejalashtirilgan va tabaqalashtirilgan (differensiyalangan). O‘quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda maqsadlar, vazifalar va ish shakllari sinchiklab tanlangan. Zarur hollarda, o‘quvchilarga muayyan fanlardan yuzaga kelgan jiddiy qiyinchiliklarni bartaraf etishda ko‘maklashish uchun AKTni ham qamrab olgan qo‘shimcha

faoliyat turlari tizimli ravishda rejaga kiritiladi va taklif etiladi.

Alohida ta'lim ehtiyojlariga va / yoki jismoniy nuqsonlariga ega bo'lgan deyarli barcha o'quvchilar o'quv rejalarida belgilangan ta'lim maqsadlariga erishishda juda salmoqli yutuqlarga erishmoqdalar. Ularning ehtiyojlari e'tiborga olinsa, bunday o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi yuqori ekanligini ta'kidlash lozim. Alohida o'quvchilarga tajribali mutaxassislarning xizmatlari ko'rsatiladi.

Boshlang'ich daraja. Tavsif

O'quv rejasining asosiy elementlari o'quvchilar o'qishda duch kelayotgan qiyinchiliklarga faqat umumiy tarzda moslashtirilgan. Qo'shimcha mutaxassislarning belgilangan ish dasturlarini bajarish jarayoniga qo'shgan hissasi sezilarli emas.

Alohida ta'lim ehtiyojlari va / yoki jismoniy nuqsonlari bo'lgan o'quvchilarning ko'pchiligi qo'yilgan maqsadlarga erishishda muvaffaqiyat qozonmoqdalar, biroq ko'pincha bu jarayon sekin kechadi va umumiy o'zlashtirish darajasi past bo'ladi.

Ko'rgazmali qurollardan foydalanish va jamoaviy ishlashni ko'zda tutuvchi o'quv jarayoni yomon rejalashtirilgan. Pedagoglar va sinf rahbarlariga o'quv rejasi, individual ish dasturlari hamda o'quvchilar ehtiyojlarini qondirish usullari bo'yicha yetarlicha tavsiyalar berilmaydi. Mutaxassislar xizmati o'quvchilar ehtiyojlarini samarali qondiradi, biroq u faqat ayrim maktab o'quvchilarigagina ko'rsatiladi. O'quvchilar ehtiyojlarini qondirish uchun maktab xodimlari ishining sifatini oshirish zarurati yaqqol ko'zga tashlanadi.

Eslatmalar:

– O'quv jarayonini ta'minlash quyidagilarni o'z ichiga oladi: jamoaviy mashg'ulotlar; ko'rgazmali qurollar taqdim etish; maslahat va konsultatsiyalar; alohida o'quvchilarga mutaxassislar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar; maktab xodimlarining ish sifatini oshirish. Ushbu majburiyatlarning barchasi ham har qanday alohida olingan maktabda yoki uning bo'linmasida bajarilmasligi mumkin.

– "Element" atamasi qo'llanilgan joyda, u biror-bir natijaga, dasturning tarkibiy qismiga, parchasiga yoki o'quv rejasining boshqa bir jihatiga tegishli bo'ladi.

– Zarur bo'lgan joylarda, rus tili ona tili bo'lmagan o'quvchilarga ko'rsatilayotgan yordamni qayd etib o'tish lozim.

9. KUTILAYOTGAN NATIJALAR VA ULARGA ERISHISH UCHUN SHART-SHAROITLAR YARATISH

Ushbu ko'rsatkich quyidagi mavzularni qamrab oladi:

– ish natijalari va rag'batlantirishlardan foydalanish;

– ishda natijalarga erishish jarayonida axloqiy me'yorlarni (tamoyillarni) mustahkamlash

uchun shart-sharoitlar yaratish.

Yuqori daraja. Tavsif

Maktab xodimlari o‘quvchilarning o‘zlashtirishi, darslarga qatnashishi (davomati) va xulq-atvoridan yuqori natijalarni kutishadi. Rag‘batlantirishning undovchi stimul hamda maktab hayotining ijobiy tomoni sifatidagi muhimligi juda yaxshi anglab yetilgan. Maqtov maktab hayotining barcha sohalarida o‘z o‘rnida samarali qo‘llaniladi. O‘quvchilar ham o‘zlarining, ham boshqalarning ishida yuqori natijalarga erishishga intiladilar.

O‘qituvchilar yuqori ma’naviy-axloqiy standartlarni o‘rnatishga intiladilar. Pedagoglar o‘quvchilar ishining yuqori sifatiga aniq yo‘naltirilgan ta’lim muhitini muvaffaqiyatli yaratadilar. O‘quvchilarda yuqori natijalarga erishishga bo‘lgan kuchli intilish namoyon bo‘ladi va bu ularning o‘qishga bo‘lgan ijobiy yondashuvida aks etadi. Barcha o‘quvchilardan ta’limning eng turli sohalarida shunga mos ravishda yuqori ko‘rsatkichlar kutiladi. Maktab erishilgan yutuqlarni qadrlaydi, tan oladi hamda ular haqida yuqori turuvchi organlarga, ota-onalarga, o‘quvchilarning oila a’zolariga va keng jamoatchilikka ma’lum qiladi.

Boshlang‘ich daraja. Tavsif

Maktab xodimlari o‘quvchilarning o‘zlashtirishi, darslarga qatnashishi (davomati) va xulq-atvori sohasidagi natijalarga har doim ham ishonch bildiravermaydilar. O‘quvchilar maktab hayotining ushbu jihatlariga har doim ham ijobiy munosabatda bo‘lmaydilar. Rag‘batlantirishlar qo‘llaniladi, biroq ularning qiymatini tushunish yoki tan olish cheklangan yoxud rag‘batlantirishlardan noto‘g‘ri foydalaniladi. O‘quvchilar o‘zlarining va boshqalarning ishida yuqori natijalarga erishishga intilmaydilar. Ularga biror-bir topshiriqni bajarish imkoniyati har doim ham berilmaydi, agar berilsa ham, masalan, faqat yuqori sinf o‘quvchilarigagina beriladi. Pedagoglar ijobiy ta’lim muhitini yaratishga intiladilar, biroq o‘quvchilarga ulardan qanday sifatdagi ish kutilayotganini yetarli darajada aniq shaklda yetkazmaydilar yoki o‘qishda shunga mos yuqori standartlarni o‘rnatmaydilar.

Maktab xodimlari har doim ham yuqori ma’naviy-axloqiy standartlarni o‘rnatishga intilmaydilar. Garchi ishning ba’zi jihatlarida yutuqlarning yuqori sifati qadrlansa-da, bu munosabat butun maktab hayotiga tatbiq etilmaydi. O‘quvchilarda yuqori natijalarga erishishga bo‘lgan intilish asossiz ravishda past darajada bo‘ladi. Ta’limning eng turli sohalaridagi ishlarda a’lo ko‘rsatkichlar faqat muayyan o‘quvchilar guruhlaridangina kutiladi. Maktab ushbu yutuqlarni qayd etish hamda ular haqida yuqori turuvchi organlarga, o‘quvchilarning oila a’zolariga va keng jamoatchilikka ma’lum qilish imkoniyatidan kamdan-kam foydalanadi.

MA’LUMOTLARNI TO‘PLASH MUNTAZAMLIGI

Diagnostika uchun ma’lumotlarni to‘plash butun o‘quv yili davomida olib boriladi. Quyida ish natijalarini kuzatib borish uchun tuzilgan maktablardan birining taqvimi (kalendari) misol tariqasida keltirilgan (3-jadval).

3-jadval

Ish natijalarini kuzatib borish uchun tuzilgan maktab taqvimi

Nima nazorat qilinadi (kuzatiladi)	Davriyligi (muntazamligi / chastotasi)	Sifat ko‘rsatkichlari										
		Av-gust	Sent-yabr	Okt-yabr	No-yabr	De-kabr	Yan-var	Fevral	Mart	Aprel	May	Iyun
Fan bo‘yicha soatlar miqdori	Yillik dastur			x		x			x			x
Yagona davlat imtihoni va Davlat yakuniy attestatsiyasi natijalari	Har yili											x
Choraklik o‘quv rejalari	Har chorakda bir marta	x		x			x		x		x	
O‘quvchilar daftarlari va sinf ishlari	Har oyda tanlanma asosida	x	x	x	x	x	x	x	x	x	x	x
Sinflardagi ish (faoliyat)	Rejalashtirilgan grafik asosida (grafik bo‘yicha)		x		x	x		x	x		x	
Ota-onalar uchun hisobotlar	Bosqichma-bosqich			x				x	x		x	
O‘quvchilarning individual o‘sishi va tavsifnomalari	Yarim yilda bir marta			x				x		x		

3-jadvalning oxiri

Nima nazorat qilinadi (kuzatiladi)	Davriyligi (muntazamligi / chastotasi)	Sifat ko‘rsatkichlari										
		Av-gust	Sent-yabr	Okt-yabr	No-yabr	De-kabr	Yan-var	Fevral	Mart	Aprel	May	Iyun
O‘quvchilarning individual o‘quv rejalari (IOR) bajarilishini kuzatib borish (monitoring qilish)	Har hafta	x	x	x	x	x	x	x	x	x	x	x
Davomat	Har oyda	x	x	x	x	x	x	x	x	x	x	x
Xulq-atvor (yoki Yurish-turish)	Har oyda	x	x	x	x	x	x	x	x	x	x	x
Xodimlarning fikrlari	Har yarim yilda			x			x					x
O‘quvchilar fikrini tanlanma asosida o‘rganish	Har yili								x			
Ota-onalar fikrini tanlanma asosida o‘rganish	Har yili							x				
Sog‘liqni saqlash va xavfsizlikni tekshirish	Yarim yilda bir marta			x				x				x
Maktabni rivojlantirish dasturining bajarilish borishi	Yarim yilda bir marta			x		x			x			x

2.3. O‘QITUVCHINING DARS O‘TISH SIFATINI BAHOLASH

Dars berish va o‘rganish maktab samaradorligini belgilovchi yetakchi omillar bo‘lganligi hamda murakkab ijtimoiy sharoitlarda faoliyat ko‘rsatayotgan maktablarga yordam ko‘rsatish dasturlari ishlab chiquvchilarining diqqat markazida turganligi sababli, o‘qituvchi ishi sifatini aniq diagnostika qilish prinsipial jihatdan juda muhimdir. Ushbu baholash dars jarayonini ekspertlar tomonidan kuzatish asosida amalga oshiriladi.

Dars o‘tish sifatini kuzatish va baholash doirasi (4-jadval) o‘qituvchining dars davomida tahlil qilish mumkin bo‘lgan asosiy kasbiy ko‘nikmalariga yo‘naltirilgan. Taqdim etilgan monitoring va baholash doirasi samarali o‘qitish modeliga tayanadi (qarang: [14]).

4-jadval.

Samarali o‘qitishning (pedagogik faoliyatning) tarkibiy qismlari

I blok: menejment (boshqaruv)			
1. Ta’lim muhitini tashkil etish	2. Vaqtdan maksimal darajada unumli (mahsuldor) foydalanish	3. O‘quvchilar xulq-atvorini samarali ta’lim faoliyati imkoniyatini ta’minlaydigan tarzda boshqarish	
1.1. O‘quv faolligini qo‘llab-quvvatlash uchun makon (joy), materiallar va jihozlarni tashkil etish	2.1. Dars tartibi va vaqtni tashkil etish	3.1. O‘quvchilar xulq-atvoriga oid talablar (ko‘rsatmalar) va kutilmalar	
1.2. Ijobiy ta’lim muhitini qo‘llab-quvvatlash	2.2. Turli xil ish shakllari uchun vaqtni taqsimlash	3.2. O‘quv faoliyatini qo‘llab-quvvatlashda monitoring vositalaridan foydalanish	
II blok: o‘qitish (pedagogik faoliyat)			
1. O‘qitishni samarali amalga oshirish	2. O‘qituvchi tomonidan taklif etilayotgan mos keluvchi (maqbul) mazmun	3. O‘quvchilarga ta’lim jarayoniga faol jalb etilish (kirishish) imkoniyatini ta’minlash	4. Baholash
1.1. Dars samaradorligini oshiradigan uslub (texnika)lardan foydalanish	2.1. Fan mazmunini o‘quvchilarning rivojlanish darajasiga mos ravishda taqdim etish	3.1. O‘quvchilarning individual (shaxsiy) xususiyatlarini hisobga olish	4.1. O‘quvchilar yutuqlarining uzluksiz monitoringini olib borish (norasmiy baholash)

4-jadvalning oxiri

1. O‘qitishni samarali amalga oshirish	2. O‘qituvchi tomonidan taklif etilayotgan mos keluvchi (maqbul) mazmun	3. O‘quvchilarga ta’lim jarayoniga faol jalb etilish (kirishish) imkoniyatini ta’minlash	4. Baholash
1.2. O‘rganishga (ta’lim olishga) xizmat qiladigan dars ketma-ketligi	2.2. Fan mazmunini aniq va to‘g‘ri taqdim etish	3.2. O‘quvchilar bilan samarali hamkorlik qilish (muloqotga kirishish) qobiliyatini namoyish etish	4.2. Barcha o‘quvchilarni ularning o‘sish ko‘rsatkichlari bo‘yicha o‘z vaqtida qayta aloqa bilan ta’minlash
1.3. O‘quv maqsadlariga erishish uchun mos keluvchi o‘quv materiallari va qo‘shimcha vositalardan foydalanish	2.3. Mavzu mazmunini ochib berish uchun mos (relevand) misollar, kutilmagan vaziyatlar va dolzarb voqealardan foydalanish	3.3. Bolalarning rivojlanish darajasiga muvofiq yuqori darajadagi (tizimli) fikrlashni rag‘batlantirish va mustahkamlash	
1.4. Zarurat bo‘lganda dars jarayoniga tuzatishlar (o‘zgartirishlar) kiritish		3.4. O‘quvchilarni rag‘batlantirish orqali faol ishtirok etishga undash	

Keyinchalik 4-jadvalda ko‘rsatilgan samarali o‘qitishning barcha bloklari batafsil yoritiladi, har bir blokda o‘qituvchining kasbiy ko‘nikmalari tavsiflanadi. O‘qituvchi yoki o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari ushbu ko‘nikmalar ro‘yxatidan o‘zi kuzatayotgan darsni baholash uchun foydalanishi mumkin. O‘qituvchi yoki o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari darsga o‘zi bilan birga olib kirishi va unda qaydlar belgilashi mumkin bo‘lgan baholash varaqasi kasbiy ko‘nikmalar tavsifidan keyin joylashtirilgan (5-jadvalga qarang).

I BLOK: MENEJMENT (BOSHQARUV)

1. Ta’lim muhitini tashkil etish:

1.1. O‘quv faolligini qo‘llab-quvvatlash uchun joy, materiallar va jihozlarni tashkil etish:

– parta va jihozlar o‘qituvchi va bolalar dars davomida erkin harakatlana oladigan qilib joylashtirilgan;

– o‘qituvchi darsda bolalarning faolligini qo‘llab-quvvatlash uchun sinfxonasini va jihozlarni mos ravishda tashkil etadi;

– o‘quv materiallari, qo‘llanmalar va jihozlar mavjud hamda foydalanishga tayyor holatga keltirilgan;

– o‘qituvchi tomonidan dars uchun sinfxonasini oldindan tayyorlash bo‘yicha amalga oshirilgan ish belgilari ko‘rinib turadi;

– sinfxona ta’lim faoliyatining turli xil ish shakllarini amalga oshirishga imkon beradigan tarzda tashkil etilgan;

– sinfxonasi toza, yig‘ishtirilgan va xavfsiz holatda;

– sinfda mavjud bo‘lgan barcha narsalar yoqimli muhit yaratadi hamda mavzu jihatidan ta’lim jarayoni bilan bog‘liq.

1.2. Ijobiy ta’lim muhitini qo‘llab-quvvatlash:

– bolalar o‘zlarini qulay his qiladilar, o‘qituvchi bilan oson va tabiiy muloqot qiladilar;

– o‘qituvchi istisnosiz mutlaqo barcha o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlaydi;

– bolalar o‘qituvchi ulardan nima kutayotganini biladilar va bu kutilmalar yetarlicha yuqori darajada bo‘ladi;

– bolalar ham og‘zaki, ham imo-ishoralar shaklida qo‘llab-quvvatlov oladilar;

– mutlaqo barcha o‘quvchilar o‘qituvchiga bo‘lgan ishonchini namoyish etadilar;

– o‘qituvchi barcha o‘quvchilarga nisbatan adolatli va o‘z talablarida izchil bo‘ladi;

– sinfdagi muhit o‘zaro xushmuomalalik va hurmatdan dalolat beradi.

2. Vaqtdan maksimal darajada unumli foydalanish:

2.1. Dars tartibi va vaqtni tashkil etish:

– o‘quv ishlari kechiktirmasdan boshlanadi;

– barcha bolalar dars tartibini tushunadilar;

– barcha bolalar o‘qituvchining ko‘rsatmalarini tushunadilar;

– darsning boshlanishi va tugashi, topshiriqlarni bajarish, materiallarni tarqatish va hokazo tartiblar ishlab chiqilgan hamda doimiy ravishda qo‘llab-quvvatlanadi;

– ish shakllarining almashishi vaqt yo‘qotmasdan amalga oshiriladi;

– o‘quvchilar dars davomida ishga faol jalb qilingan bo‘ladi.

2.2. Turli xil ish shakllari uchun vaqtni taqsimlash:

– ishni boshqalardan tezroq tugatgan o‘quvchilarga boshqa topshiriqlar beriladi;

– o‘qituvchi yuzaga kelgan xalaqit va to‘siqlarni minimal vaqt yo‘qotish bilan bartaraf etadi;

– o‘qituvchi o‘quvchilarning rejalashtirilgan ishdan chalg‘ishlarini minimal darajaga tushiradi;

– o‘qituvchi o‘quvchilarning hech narsa qilmasdan, kutib o‘tiradigan vaqtini minimallashtiradi;

– o‘quv ishlari unga ajratilgan vaqt ichida yakunlanadi;

– o‘quv faoliyati dars tugagunga qadar davom etadi;

– o‘quvchilar o‘quv jarayoniga faol va aniq jalb qilingan (hech narsa qilmaslik holati mavjud emas yoki minimal darajaga tushirilgan).

3. O‘quvchilar xulq-atvorini samarali ta’lim faoliyati imkoniyatini ta’minlaydigan tarzda boshqarish:

3.1. O‘quvchilar xulq-atvoriga oid talablar va kutilmalar:

– o‘quvchilarning xulq-atvori ularga kutilmalar aniq, izchil va yaxshi tushuntirilganligidan dalolat beradi;

– tartib-taomillar va qoidalar aniq belgilangan hamda qo‘llab-quvvatlanadi;

– maqbul bo‘lmagan xulq-atvorning oqibatlari aniq belgilangan va joriy etilgan;

– o‘qituvchi o‘quvchilarning xulq-atvoriga qo‘yiladigan yuqori talablarga doimiy ravishda e’tibor qaratadi.

3.2. Ta’lim faoliyatini qo‘llab-quvvatlash uchun monitoring vositalaridan foydalanish:

– dars davomida xulq-atvor samarali nazorat qilib boriladi (monitoring amalga oshiriladi);

– maqbul bo‘lmagan xulq-atvor to‘xtatiladi yoki boshqa tomonga yo‘naltiriladi;

– maqbul bo‘lmagan xulq-atvor asosli oqibatlarga olib keladi;

– o‘qituvchi o‘quvchilar tomonidan xulq-atvor qoidalariga rioya qilinishini kuzatib boradi;

– o‘qituvchi muammolar yuzaga kelishining oldini oluvchi profilaktik choralarni qo‘llaydi;

– vazifalarning tez-tez almashib turishi diqqatni jamlashni va topshiriqqa diqqat-e’tiborli bo‘lishni ta’minlaydi;

– sinfdagi ish jarayonidan uzilib qolgan (chalg‘igan) bolalar yo‘q.

II BLOK: O‘QITISH (PEDAGOGIK FAOLIYAT)

1. O‘qitishni samarali amalga oshirish:

1.1. Dars samaradorligini oshiradigan uslublardan foydalanish:

– o‘quvchilar darsning maqsadlari, mantiqi va natijalarini anglaydilar;

– turli xil o‘qitish usullari va o‘quv ishi shakllari majmuasidan foydalaniladi;

– yangi topshiriq tushuntirilishidan oldin barcha bolalarning diqqati jamlanadi;

– dars o‘quvchilarning diqqat-e’tiborini jamlaydigan faoliyat bilan boshlanadi;

– tanlangan ish shakllari ta’lim natijalarini oshirishga xizmat qiladi;

– taklif etilayotgan ishning maqsadlari aniq belgilangan;

– o‘quv vazifasini qo‘yish uchun zarur bo‘lgan ko‘rsatmalar aniqligi va to‘liqligi bilan ajralib turadi.

1.2. Ta’lim olishga xizmat qiladigan dars ketma-ketligi:

– darsning umumiy sharhi beriladi (maqsadlar belgilanadi, o‘tilgan va kelgusi darslarga bog‘liqlik ko‘rsatiladi, bolalarning diqqati qaratiladi);

– dars mazmuniga urg‘u beriladi (ish yangi tushuncha va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishga qaratiladi);

– o‘quvchilar o‘rganilayotgan tushuncha va ko‘nikmalarni mustaqil ravishda mashq qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar;

– dars o‘tilgan jarayonlarning tahlili (sarhisobi)ni o‘z ichiga oladi;

– dars rasmiy yakunlash qismini qamrab oladi;

– monitoring butun dars davomida uzluksiz ravishda amalga oshiriladi;

– o‘quvchilarning ta’limiy yutuqlari bo‘yicha qayta aloqa beriladi;

– dars yaxshi tashkil etilgan mazmun bilan mantiqiy ketma-ketlikda rivojlanadi.

1.3. O‘quv maqsadlariga erishish uchun mos keluvchi o‘quv materiallari va qo‘shimcha vositalardan foydalanish:

– o‘quvchilarni qiziqtirish va o‘qitish jarayonini xilma-xil qilish uchun turli xil materiallar va qo‘shimcha vositalardan foydalaniladi;

– materiallar va qo‘shimcha vositalardan foydalanish natijalarning rivojlanishiga xizmat qiladi;

– materiallar va qo‘shimcha vositalar o‘quvchilarning individual xususiyatlariga moslashtirilgan;

– materiallar va qo‘shimcha vositalar shakllantirilayotgan tushunchalarni chuqurlashtirish, mustahkamlash va kengaytirishga yordam beradi.

1.4. Zarurat bo‘lganda dars jarayoniga o‘zgartirishlar kiritish:

– o‘qituvchi bajarilgan ishlarni takrorlaydi;

– o‘qituvchi darsning borishini moslashtirib boradi.

2. O‘qituvchi tomonidan taklif etilayotgan mos keluvchi mazmun:

2.1. Fan mazmunini o‘quvchilarning rivojlanish darajasiga mos ravishda taqdim etish:

– o‘qituvchi fan mazmunini juda yaxshi biladi;

– o‘qituvchi mavzu mazmunini o‘quvchilarning qobiliyatlari, erishgan natijalari va qiziqishlariga moslashtiradi.

2.2. Fan mazmunini aniq va to‘g‘ri taqdim etish:

– mazmun aniq va mantiqiy tarzda taqdim etiladi;

– zamonaviy va dolzarb ma’lumotlar beriladi;

– eskirgan ma’lumotlar qo‘shimcha manbalar yordamida tuzatiladi.

2.3. Mavzu mazmunini ochib berish uchun mos misollar, kutilmagan vaziyatlar va dolzarb voqealardan foydalanish:

– dars mazmuni hayotiy tajriba bilan bog‘langan;

– dars mazmuni dolzarb voqealarga mutanosiblashtirilgan;

– bolalar olgan bilim va ko‘nikmalarini hayotda qo‘llashga o‘rgatiladi.

3. O‘quvchilarga ta’lim jarayoniga faol jalb etilish imkoniyatini ta’minlash:

3.1. O‘quvchilarning individual (shaxsiy) xususiyatlarini hisobga olish. O‘qituvchi quyidagilarga moslashish uchun turli xil ish shakllari, materiallar, topshiriqlar va baholash usullaridan foydalanadi:

– axborotni ko‘rish, eshitish va amaliy faoliyat orqali o‘zlashtirishning turli usullariga;

– turli xil o‘quv hajmlariga;

– o‘quvchilarning turli xil ta’lim imkoniyatlariga (chuqurlashtirish, xatolarni to‘g‘rilash);

– o‘quvchilarning turli rivojlanish darajalariga;

– o‘quvchilarning turli xil qiziqishlariga.

3.2. O‘quvchilar bilan samarali hamkorlik qilish qobiliyatini namoyish etish:

– o‘qituvchining og‘zaki va yozma nutqi to‘g‘ri hamda adabiy ekanligi bilan ajralib turadi;

– topshiriqni qanday bajarish bo‘yicha aniq ko‘rsatma beriladi;

– topshiriqni bajarish uchun zarur bo‘lgan bosqichlar belgilanadi;

– zarurat tug‘ilganda o‘quvchilarga topshiriqlarni bajarish namunalari ko‘rsatiladi;

– o‘qituvchi tomonidan qo‘llaniladigan so‘z boyligi ushbu sinf darajasiga mos keladi;

– O‘quvchilarga darsni tashkil etish va topshiriqlarni bajarish tartibiga oid savollar yetarli darajada beriladi.

3.3. Bolalarning rivojlanish darajasiga muvofiq yuqori darajadagi fikrlashni rag‘batlantirish va mustahkamlash:

– o‘qituvchi turli xil savollar beradi;

– savollar bolalarning yuqori darajadagi fikrlash ko‘nikmalariga qaratilgan bo‘ladi;

– o‘quvchilarga javobga tayyorlanish uchun vaqt ajratiladi;

– ko‘p variantli savollarga qaraganda oddiy va ochiq savollardan tez-tez foydalaniladi;

– o‘qituvchi dastlab yo‘naltiruvchi savollarini taklif qiladi;

– o‘quv faoliyati yuqori darajadagi fikrlashni mustahkamlashga xizmat qiladi;

– qaror qabul qilish va noaniq masalalarni yechish uchun imkoniyatlar mavjud;

– o‘quv faoliyati kreativ fikrlashni talab qiladi;

– fikrlash jarayoni mavjud bilimlar darajasidan yuqoriroq bosqichda amalga oshirilayotganidan dalolat beruvchi belgilar ko‘rinib turadi.

3.4. O‘quvchilarni rag‘batlantirish orqali faol ishtirok etishga undash:

– barcha o‘quvchilar, jumladan, kam faol bo‘lganlar ham darsda ishtirok etishga muntazam ravishda undab boriladi;

– barcha bolalar darsda faol va ochiq ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘ladilar;

– o‘zaro muloqotni qo‘llab-quvvatlash uchun o‘quvchilarning javoblari va ular tomonidan bildirilgan g‘oyalardan foydalaniladi;

– o‘quvchilarning hamkorlikda ishlashi rag‘batlantiriladi;

– o‘quvchilar sinfdoshlarining g‘oyalari va javoblarini hisobga olishga undaladi;

– o‘quvchilar o‘z g‘oyalari hamda ma’lumotlari bilan o‘rtoqlashishga rag‘batlantirilayotganidan dalolat beruvchi belgilar mavjud.

4. Baholash:

4.1. O‘quvchilar yutuqlarining uzluksiz monitoringini olib borish (norasmiy baholash):

– o‘qituvchi bolalarning topshiriqni bajarishga jalb etilganligini doimiy ravishda kuzatib boradi (boshida, jarayon davomida va yakunlangandan keyin);

– o‘qituvchi o‘zlashtirilgan materialni savollar orqali tekshiradi, ulardan ayrimlari murakkablik darajasi yuqori bo‘lgan savollardir;

– ish jarayonida o‘qituvchi o‘quvchilarning o‘sishini baholash uchun sinf bo‘ylab yuradi;

– o‘qituvchi o‘quvchidan o‘tilgan mavzuni bilishini namoyish etishni talab qiladi;

– monitoring faqat kichik bir guruhga emas, balki sinfdagi barcha o‘quvchilarga qaratilgan bo‘ladi.

4.2. Barcha o‘quvchilarni ularning o‘sish ko‘rsatkichlari bo‘yicha o‘z vaqtida qayta aloqa bilan ta’minlash:

– o‘qituvchi dars davomida o‘quvchilarni izchil ravishda qayta aloqa bilan ta’minlaydi;

– o‘qituvchi to‘g‘ri javobni tasdiqlaydi hamda u yoki bu javobning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligi yuzasidan tushuntirishlar beradi;

– javob nima uchun noto‘g‘ri yoki mos kelmaydigan bo‘lib chiqqanini tushuntiruvchi tuzatuvchi qayta aloqa ta’minlanadi;

– xatolarni to‘g‘rilash uchun maxsus tavsiyalar beriladi;

– o‘qituvchi alohida tirishqoqlik (g‘ayrat) ko‘rsatgani uchun maqtaydi;

– o‘qituvchi qiyinchilikka duch kelgan o‘quvchilarga takroran murojaat qiladi;

– natijaga erishgan o‘quvchilar maxsus qayta aloqa oladilar.

Quyida har bir ko‘rsatkich bo‘yicha qiymatlar qo‘yiladigan va izohlar kiritiladigan baholash varaqasi keltirilgan (5-jadval).

5-jadval

Sinfda kuzatishlar olib borish uchun baholash varaqasi

Maktab_____ O‘qituvchi_____						
Sinf_____ Sana_____						
Ko‘rsatkich	K/M	1	2	3	4	Izoh
I blok: menejment (boshqaruv)						
1.1. O‘quv faolligini qo‘llab-quvvatlash uchun joy, materiallar va jihozlarni tashkil etish						
1.2. Ijobiy ta’lim muhitini qo‘llab-quvvatlash						
2.1. Dars tartibi va vaqtni tashkil etish						
2.2. Turli xil ish shakllari uchun vaqtni taqsimlash						
3.1. O‘quvchilar xulq-atvoriga oid talablar (ko‘rsatmalar) va kutilmalar						
3.2. Ta’lim faoliyatini qo‘llab-quvvatlash uchun monitoring vositalaridan foydalanish						

5-jadvalning davomi

II blok: o‘qitish (pedagogik faoliyat)						
1.1. Dars samaradorligini oshiradigan uslub (texnika) lardan foydalanish						
1.2. O‘rganishga (ta’lim olishga) xizmat qiladigan dars ketma-ketligi						
1.3. O‘quv maqsadlariga erishish uchun mos keluvchi o‘quv materiallari va qo‘shimcha vositalardan foydalanish						
1.4. Zarurat bo‘lganda dars jarayoniga o‘zgartirishlar kiritish						
2.1. Fan mazmunini o‘quvchilarning rivojlanish darajasiga mos ravishda taqdim etish						
2.2. Fan mazmunini aniq va to‘g‘ri taqdim etish						
2.3. Mavzu mazmunini ochib berish uchun mos misollar, kutilmagan vaziyatlar va dolzarb voqealardan foydalanish						
3.1. O‘quvchilarning individual (shaxsiy) xususiyatlarini hisobga olish						
3.2. O‘quvchilar bilan samarali hamkorlik qilish qobiliyatini namoyish etish						

5-jadvalning oxiri

3.3. Bolalarning rivojlanish darajasiga muvofiq yuqori darajadagi fikrlashni rag‘batlantirish va mustahkamlash						
3.4. O‘quvchilarni rag‘batlantirish orqali faol ishtirok etishga undash						
4.1. O‘quvchilar yutuqlarining uzluksiz monitoringini olib borish (norasmiy baholash)						
4.2. Barcha o‘quvchilarni ularning o‘sish ko‘rsatkichlari bo‘yicha o‘z vaqtida qayta aloqa bilan ta’minlash						

Baholar:

– K/M – kuzatilmadi;

– 1 – qoniqarsiz;

– 2 – yaxshilanishga muhtoj;

– 3 – yaxshi.

2.4. MAKTAB MUHITINI BAHOLASH: QAYTA ALOQA VOSITALARI

Maktab jarayonlarini chuqurlashtirilgan diagnostika qilish jarayonidagi monitoring va baholashning yana bir yo‘nalishi maktab muhiti va ta’lim muhitini baholash hisoblanadi.

Quyida keltirilgan so‘rovnomalarni ta’lim jarayoni ishtirokchilari o‘quvchilar va pedagoglardan olingan ma’lumotlar asosida o‘quv jarayoni hamda o‘qitish sifatini baholash imkonini beruvchi qayta aloqa vositalari qatoriga kiritish mumkin.

Shu bilan birga, so‘rovnoma ma’lumotlari maktab muhiti manzarasini tiklash hamda o‘quvchilar motivatsiyasi, o‘qituvchilarning o‘zgarishlarga bo‘lgan munosabati, maktab jamoasidagi hamkorlik va ishonch, maktab muhitining o‘quvchilar va o‘qituvchilar uchun qay darajada qulayligi, shuningdek, ularning o‘zaro ishonchi haqida xulosa chiqarish imkonini berishi ham juda muhimdir.

Quyida shunday so‘rovnomalardan bir nechtasi taqdim etilgan.

So‘rovnomalar boshlang‘ich, tayanch va yuqori sinflarda, har bir bosqichdan bittadan sinfda o‘tkaziladi. 1–4-sinflarda bolaga savollarning mazmunini tushuntirib beradigan, javoblarni to‘g‘ri va aniq yozib oladigan intervyu beruvchi ishtirokida to‘ldirilishi maqsadga muvofiq, 5–6-sinflarda esa bolalar so‘rovnomani mustaqil to‘ldirishlari mumkin. Yuqori sinf o‘quvchilari o‘z sinflari va ta’limning oldingi bosqichiga oid savollarga javob beradilar. Masalan, 7–8-sinflarda va 10–11-sinflarda darsda eng ko‘p nima bilan shug‘ullanganliklari haqida.

1-sonli o‘quvchi so‘rovnomasi: “Darslarda eng ko‘p nima bilan shug‘ullandim”

Hurmatli o‘quvchi!

Ushbu so‘rovnomada biz darslarda odatda bajaradigan faoliyatlaringiz haqida fikringizni bilmoqchimiz. Javoblaringiz anonim hisoblanadi, ya’ni so‘rovnomani aynan kim to‘ldirganini aniqlashning imkoni yo‘q.

Savollarga mustaqil, xolis va o‘z fikringizga tayangan holda javob bering.

Iltimos, har bir savolni diqqat bilan o‘qing va har bir satrda tanlagan javobingizga mos katakka belgi “✓” yoki “+” qo‘ying (6-jadval).

Javoblaringiz uchun katta rahmat!

2-sonli o‘quvchi so‘rovnomasi: “Darslarda o‘zimni qanday his qilaman”

Hurmatli o‘quvchi!

Ushbu so‘rovnoma darslarda o‘zingizni qanday his qilishingiz va darslar haqidagi fikrlaringizni bildirish imkoniyatini beradi. Sizning javoblaringiz barcha o‘quvchilarning fikrini yaxshiroq tushunishimizga yordam beradi.

Javoblaringiz anonim hisoblanadi, ya’ni so‘rovnomani aynan kim to‘ldirganini aniqlashning imkoni yo‘q. Iltimos, barcha savollarga mustaqil, xolis va o‘z fikringizga tayangan holda javob bering.

So‘rovnomaning ikkinchi qismida darslarga oid turli fikrlar keltirilgan. Siz ulardan qaysilari darslaringizga mos kelishini belgilaysiz.

Agar xohlasangiz, so‘rovnomaning uchinchi qismida darslarda Sizga nimalar yoqishi va nimalar o‘qishingizga xalaqit berishi haqida batafsilroq fikr bildirishingiz mumkin.

Sinf: _____

Fan: _____

Iltimos, har bir savolni diqqat bilan o‘qing va har bir satrda tanlagan javobingizga mos katakka belgi “✓” yoki “+” qo‘ying.

1. O‘qituvchi

Ushbu xususiyat mening o‘qituvchimga xos (7-jadval).

6-jadval

1-sonli o‘quvchi so‘rovnomasi: “Darslarda eng ko‘p nima bilan shug‘ullandim”

Darsda nima qildim	1–4-sinflarda (7–9-sinflarda)				5–6-sinflarda (10–11-sinflarda)			
	Har bir darsda	Haftada 1–2 marta	Kamdan-kam	Hech qachon	Har bir darsda	Haftada 1–2 marta	Kamdan-kam	Hech qachon
Kutubxonada mustaqil topshiriqni bajardim								
Doskadan ko‘chirib yozdim								
Muhokamada ishtirok etdim								
O‘qituvchini indamay tingladim								
O‘qituvchining so‘zlarini konspekt qildim								
O‘qituvchining aytib turishi (diktant qilishi) bo‘yicha yozdim								
Biror-bir topshiriq ustida guruhda ishladim								
O‘z hayollarim bilan bo‘lib, vaqt o‘tkazdim								
O‘z vazifamni o‘qituvchi bilan muhokama qildim								
O‘quv topshirig‘ini bajarish uchun kompyuterda ishladim								
Hayotimga daxldor bo‘lgan (hayotiy tajribamga mos) topshiriqni bajardim								
Hech narsa qilmadim								

7-jadval

2-sonli o‘quvchi so‘rovnomasi: “O‘qituvchimga xos bo‘lgan xususiyatlar”

№	O‘qituvchining xususiyati	To‘liq darajada	“Yo‘q”dan ko‘ra ko‘proq ha	“Ha”dan ko‘ra ko‘proq yo‘q	Umuman yo‘q
1	Adolatli				
2	Hazil-mutoyiba tuyg‘usiga ega				
3	Yordam beradi va qo‘llab-quvvatlaydi				
4	Xushmuomala				
5	Qiziquvchan				
6	Tushunadigan				
7	Halol				
8	Samimiy				
9	Tanqidni to‘g‘ri qabul qiladi				

2. O‘qituvchingizning darslari

Ushbu tavsiflar qanchalik aniq?

Agar tavsif, sizning fikringizga ko‘ra, haqiqatga mutlaqo to‘g‘ri kelsa, mos satrdagi 1-ustunning ostidagi katakka belgi “✓” yoki “+” qo‘ying (8-jadval), agar umuman to‘g‘ri kelmasa 4-ustun ostidagi mos katakni belgilang. Kursiv bilan ajratilgan savollarga alohida e’tibor bering (2, 5, 8, 10, 16, 19, 23, 27). Ular inkor shaklida (salbiy ma’noda) shakllantirilgan.

8-jadval

2-sonli o‘quvchi so‘rovnomasi: “O‘qituvchining tavsifnomalari”

№	Tavsifnoma	Mutlaqo to‘g‘ri	“Yo‘q”dan ko‘ra ko‘proq ha	“Ha”dan ko‘ra ko‘proq yo‘q	Aniq yo‘q
1	O‘qituvchi fanni juda yaxshi biladi, shuning uchun hatto qiyin savollarga ham javob bera oladi.				

8-jadvalning davomi

№	Tavsifnoma	Mutlaqo to‘g‘ri	“Yo‘q”dan ko‘ra ko‘proq ha	“Ha”dan ko‘ra ko‘proq yo‘q	Aniq yo‘q
2	*Yaxshi baho olish uchun o‘quvchining o‘qituvchiga yoqishi yoki yoqmasligi muhim. Haqiqiy bilim va ko‘nikmalar u qadar muhim emas.*				
3	Menimcha, o‘qituvchi meni shaxsan juda yaxshi taniydi, mening ham kuchli, ham kuchsiz tomonlarimni biladi.				
4	O‘qituvchi hech kimni ajratmasdan, bizni haqiqiy yutuqlarimiz va xulq-atvorimizga qarab rag‘batlantirishga harakat qiladi.				
5	*Ushbu o‘qituvchi topshiriqlarni tekshirayotganda yoki so‘rayotganda aniq nima xohlayotganini hamda baho qaysi mezonlar asosida qo‘yilishini aniq bilmayman.*				
6	Menimcha, ushbu o‘qituvchining darslari tufayli ko‘p narsani o‘rgandim.				
7	Dars o‘tish qiziqarli va jozibali, chunki o‘qituvchi darslarni xilma-xil o‘tadi, biz amaliy muammolarni ko‘rib chiqamiz.				

8-jadvalning davomi

№	Tavsifnoma	Mutlaqo to‘g‘ri	“Yo‘q”dan ko‘ra ko‘proq ha	“Ha”dan ko‘ra ko‘proq yo‘q	Aniq yo‘q
8	*O‘qituvchi bizdan juda ko‘p narsa talab qiladi, shu sababli men ulgurmayotganimni his qilyapman va ruhiy zo‘riqish (stress) his qilyapman.*				
9	O‘qituvchi hamma narsani aniq va tushunarli tushuntiradi, shuning uchun eng muhim jihatlarni yaxshi tushunib olaman.				
10	*Xato qilsam yoki o‘zimni yomon tutsam, o‘qituvchi meni butun sinf oldida urishadi va masxara qiladi.*				
11	Sinfimizda ushbu o‘qituvchi dars o‘tsa, juda xursand bo‘laman.				
12	O‘qituvchi uning fani boshqa fanlar va amaliy muammolar bilan qanday bog‘liqligini bizga tez-tez tushuntirib beradi.				
13	Agar biror narsani to‘g‘ri va yaxshi bajarsam, o‘qituvchi meni buning uchun maqtaydi.				

8-jadvalning davomi

№	Tavsifnoma	Mutlaqo to‘g‘ri	“Yo‘q”dan ko‘ra ko‘proq ha	“Ha”dan ko‘ra ko‘proq yo‘q	Aniq yo‘q
14	Uyga vazifa berishdan oldin, o‘qituvchi boshqa uy vazifalarimiz bor-yo‘qligini yoki boshqa fandan nazorat ishiga tayyorlanishimiz kerak emasligini so‘raydi.				
15	O‘qituvchi bizga biror yangi yoki qiyin narsani tushuntira olsa, xursand bo‘ladi.				
16	*Bu o‘qituvchi ko‘pincha sinfda ish uchun zarur bo‘lgan tartib-intizom muhitini yarata olmaydi.*				
17	Agar o‘qishda qiyinchiliklarga duch kelsam, o‘qituvchining tushunishi va yordamiga tayana olaman.				
18	O‘qituvchi o‘z darsida bizga dolzarb, zamonaviy va amaliy jihatdan foydali ma’lumotlarni yetkazishga juda harakat qiladi.				

8-jadvalning davomi

№	Tavsifnoma	Mutlaqo to‘g‘ri	“Yo‘q”dan ko‘ra ko‘proq ha	“Ha”dan ko‘ra ko‘proq yo‘q	Aniq yo‘q
19	*Mendan qiziqarli g‘oyalar paydo bo‘lganda va men biror narsa demoqchi bo‘lganimda, o‘qituvchi menga umuman e’tibor bermaydi.*				
20	O‘qituvchining shaxsiy ishtiyoqi va jonkuyarligi tufayli bizda ham uning faniga nisbatan qiziqish uyg‘onadi.				
21	O‘qituvchi darslarda o‘z g‘oyalarimizni amalga oshira olishimizni kuzatib boradi.				
22	Agar bu o‘qituvchining darsida menga biror narsa xalaqit bersa, salbiy oqibatlardan qo‘rqmasdan buni unga ayta olaman.				
23	*Bu o‘qituvchi asosan sinfdagi yaxshi o‘qiydigan o‘quvchilar bilan shug‘ullanadi.*				
24	Agar o‘qituvchi uyga vazifa bersa, ularni hech kimning yordamisiz, mustaqil bajara olaman.				

8-jadvalning oxiri

№	Tavsifnoma	Mutlaqo to‘g‘ri	“Yo‘q”dan ko‘ra ko‘proq ha	“Ha”dan ko‘ra ko‘proq yo‘q	Aniq yo‘q
25	Agar biror narsani noto‘g‘ri bajarsam, masalan, uy vazifalarida, o‘qituvchi uni qanday qilib to‘g‘ri bajarish kerakligini tushuntiradi.				
26	O‘qituvchi o‘z fanida menga hayotda yoki kelgusi kasbimda asqatadigan bilimlarni beradi.				
27	*O‘qituvchi qo‘yadigan yuqori talablar tufayli, unga javob berayotganimda menda ko‘pincha qo‘rquv paydo bo‘ladi.*				
28	Bu o‘qituvchidan olayotgan baholarim mening haqiqiy yutuqlarimga (bilimimga) mos keladi.				
29	Bu o‘qituvchi kelgusi yili ham menga dars berishini xohlardim.				
30	Bu o‘qituvchi menga yoqadi.				

3. Umuman olganda, o‘qituvchingizdan qanchalik mamnunsiz

Eng mos keladigan javob variantini doira ichiga oling.

1 – juda mamnunman;

2 – mamnunman;

3 – bir narsa deya olmayman;

4 – mamnun emasman;

5 – mutlaqo mamnun emasman.

Agar xohlasangiz, o‘qituvchingizning darslarida sizga nima yoqishi yoki nima ayniqsa xalaqit berishi haqida aniqroq yozishingiz mumkin.

Menga yoqadi:

_____
_____
_____

Menga xalaqit beradi:

_____
_____
_____

Iltimos, barcha savollarga javob berganingizni tekshirib ko‘ring. Javoblaringiz uchun sizga katta rahmat!

3-sonli o‘quvchi so‘rovnomasi: “Maktab haqida nima deb o‘ylayman”

Hurmatli o‘quvchi!

Ushbu so‘rovnomada biz Sizning maktabingiz haqidagi fikrlaringizni, maktabda o‘zingizni qanchalik qulay his qilishingizni hamda bu yerda ta’lim olish Siz uchun qay darajada qiziqarli ekanini bilmoqchimiz.

Javoblaringiz anonim hisoblanadi, ya’ni so‘rovnomani aynan kim to‘ldirganini aniqlashning imkoni yo‘q. Iltimos, barcha savollarga mustaqil, xolis va o‘z fikringizga tayangan holda javob bering.

Har bir satrda tanlagan javob variantingiz qarshisidagi katakka belgi “✓” yoki “+” qo‘ying (9-jadval).

9-jadval

3-sonli o‘quvchi so‘rovnomasi: “Maktab haqida nima deb o‘ylayman”

№	Mening maktab muhitim	To‘liq qo‘shilaman	Qisman qo‘shilaman	Qisman qarshiman	To‘liq qarshiman
1	Maktabda o‘rganayotgan narsalarimiz muhim va foydali deb o‘ylayman				

9-jadvalning davomi

№	Mening maktab muhitim	To‘liq qo‘shilaman	Qisman qo‘shilaman	Qisman qarshiman	To‘liq qarshiman
2	O‘tayotgan mavzularimizni do‘stlarim bilan muhokama qilganimda, bu menga o‘qishda yordam beradi				
3	Oilam o‘qishimga juda katta yordam berayotganini his qilaman				
4	Birgalikda ishlaganimizda, men har bir o‘quvchining fikrini tinglayman				
5	Maktabda bizga juda qiziqarli narsalarni o‘rgatishadi.				
6	Bizning o‘qituvchilarimiz adolatli va halol deb o‘ylayman.				
7	Darsda birgalikda ishlaganimizda, topshiriqni qanday qilib yaxshiroq bajarishni faol muhokama qilaman.				
8	Ota-onam maktabni va ta’limni yuqori baholashadi (qadrlashadi).				

9-jadvalning oxiri

№	Mening maktab muhitim	To‘liq qo‘shilaman	Qisman qo‘shilaman	Qisman qarshiman	To‘liq qarshiman
9	Boshqa o‘quvchilar bilan birgalikda biror ish qilganimda, ularga har doim yordam berishga tayyorman.				
10	Uyda kimdir albatta o‘qishimga yordam beradi.				
11	Maktabda o‘rganayotgan narsalarimiz do‘stlarim uchun qiziqarli.				
12	Boshqa o‘quvchilar bilan birgalikda topshiriq bajarayotganimizda, men o‘z yechimlarimni taklif qilaman.				
13	Ota-onam o‘qishga bo‘lgan qiziqish va g‘ayrat-shijoatni juda qadrlashadi.				
14	Do‘stlarim maktabda bizga o‘rgatilayotgan narsalarni qadrlashadi.				
15	O‘qituvchilarimiz o‘quvchilarning fikriga juda e’tiborli deb o‘ylayman.				
16	Qiyin va murakkab masalalarni do‘stlarim bilan muhokama qilish menga yoqadi.				

So‘rovnomaning mazmuniy bloklari:

– Maktabning ta’lim muhiti: 1, 5-tasdiqlar.

– O‘zaro hamkorlik: 4, 9-tasdiqlar.

– O‘qituvchilar bilan munosabatlar: 6, 15-tasdiqlar.

– Vazifani birgalikda hal qilishga yo‘naltirilganlik: 7, 12-tasdiqlar.

– Oilaning qo‘llab-quvvatlashi: 3, 10-tasdiqlar.

– Oilaning ta’limga bo‘lgan talabi (ehtiyoji): 8, 13-tasdiqlar.

– Do‘stlarning qo‘llab-quvvatlashi: 11, 14-tasdiqlar.

– Do‘stlarning o‘qishga bo‘lgan munosabati: 12, 16-tasdiqlar.

Quyida maktabning pedagogik madaniyatiga bag‘ishlangan o‘qituvchilar uchun so‘rovnoma keltirilgan.

1-sonli o‘qituvchi so‘rovnomasi: “Pedagogik madaniyat”

Hurmatli o‘qituvchi!

Sizni maktabning pedagogik madaniyatiga oid ushbu so‘rovnomada ishtirok etishga taklif etamiz.

Iltimos, har bir tasdiqni diqqat bilan o‘qing va javobingizga eng mos keladigan ustundagi katakka belgi “✓” yoki “+” qo‘ying (10-jadval).

10-jadval

1-sonli o‘qituvchi so‘rovnomasi: “Pedagogik madaniyat”

№	Mening maktab muhitim	To‘liq qo‘shilaman	Qisman qo‘shilaman	Qisman qarshiman	To‘liq qarshiman
1	Odatda, maktabdan ketayotganimda, o‘tgan kundan mamnun bo‘laman				
2	Maktabimiz o‘qituvchilari ishga mamnuniyat bilan kelishadi				
3	Agar imkoniyatim bo‘lsa, o‘qituvchi bo‘lib ishlashni to‘xtatgan bo‘lardim				

10-jadvalning davomi

№	Mening maktab muhitim	To‘liq qo‘shilaman	Qisman qo‘shilaman	Qisman qarshiman	To‘liq qarshiman
4	Direktor ota-onalar yordami va jamoatchilik qo‘llab-quvvatlashini jalb qiladi				
5	Maktab uchun muhim bo‘lgan qarorlar o‘qituvchilarning fikrini hisobga olmasdan qabul qilinadi				
6	Bu ish mening harakatlarimga (mehnatimga) arzimaydi, degan tuyg‘u menda tez-tez paydo bo‘ladi				
7	Direktor o‘qituvchilar oldida qanday vazifalar turganini va nima qilish kerakligini aniq belgilab beradi				
8	Agar bolalar o‘qishni xohlamasalar, ularni majburlashdan ma’no yo‘q deb hisoblayman				
9	Darslarimda o‘quvchilar ko‘p shug‘ullanishiga harakat qilaman				
10	Maktabni yaxshilash uchun nima qilish kerakligi haqida menda aniq tasavvur bor				

10-jadvalning oxiri

№	Mening maktab muhitim	To‘liq qo‘shilaman	Qisman qo‘shilaman	Qisman qarshiman	To‘liq qarshiman
11	Direktor o‘qituvchilarning muammolariga e’tibor bermaydi				
12	Hamkasblarim orasida do‘stlarim yo‘q				
13	Maktabimizdagi ayrim o‘qituvchilar umumiy ishlarda hech qachon ishtirok etmaydilar				
14	Maktabimizdagi o‘qituvchilarning ko‘pchiligi ayrim o‘quvchilarni aslo boshqarib bo‘lmaydi deb hisoblashadi				
15	O‘qituvchilarda maktabni yaxshilash uchun nima qilish kerakligi haqida aniq tasavvur bor				
16	Direktor maktab uchun kam resurs va yordam jalb qiladi				
17	O‘qituvchilar maktabimiz o‘quvchilaridan ko‘p ishlashni (g‘ayrat qilishni) kuta olmaydilar				
18	Direktor maktab muammolarini muhokama qilish uchun doim ochiq				

So‘rovnomaning mazmuniy bloklari:

– Kasbiy mamnuniyat: 3, 6-tasdiqlar.

– Maktabga bo‘lgan munosabat: 1, 2-tasdiqlar.

– O‘quvchilardan kutilmalar: 14, 17-tasdiqlar.

– Ta’limiy natijalarga yo‘naltirilganlik: 8, 9-tasdiqlar.

– Maqsadli rahbarlik (boshqaruv): 7, 11-tasdiqlar.

– O‘zaro hamkorlik: 12, 13-tasdiqlar.

– Qo‘llab-quvvatlashni jalb qilish: 4, 16-tasdiqlar.

– Umumiy rivojlanish strategiyasi: 10, 15-tasdiqlar.

– Boshqaruvda ishtirok etish: 5, 18-tasdiqlar.

2-sonli o‘qituvchi so‘rovnomasi: “Maktab ichidagi professional hamkorlik ta’sirini baholash”

Hurmatli o‘qituvchi!

Ushbu so‘rovnoma 17 ta tasdiqdan iborat (11-jadval).

Iltimos, har bir tasdiqni diqqat bilan o‘qing va quyidagilarni baholang:

– tasdiqning maktabdagi joriy holatni qay darajada aks ettirishini (chap ustun);

– tasdiqning maktab uchun qay darajada muhim ekanini (o‘ng ustun).

11-jadval

2-sonli o‘qituvchi so‘rovnomasi: “Maktab ichidagi professional hamkorlik ta’sirini baholash”

Ball (hozirgi holat / joriy vaziyat)	Past → Yuqori											Ball (muhim-ligi)
	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	
	Mulohazalar											
	1. Maktab madaniyatida har bir kishi (shu jumladan, butun jamoa) o‘rganuvchi ekanligi aniq belgilab qo‘yilgan.											
	2. O‘qituvchilar o‘quvchilar ishini o‘zaro kelishilgan mezonlar asosida rejalashtirish va baholashda hamkorlikda ishlaydilar.											
	3. Kelishilgan baholash mezonlari o‘qituvchilarning o‘zlari tomonidan, hamkasblari bilan birgalikda ilg‘or pedagogik tajribalarni o‘zlashtirish jarayonida ishlab chiqiladi.											

11-jadvalning davomi

Ball (hozirgi holat / joriy vaziyat)	Past → Yuqori											Ball (muhim-ligi)
	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	
	4. O‘qituvchilar jamoalarga (professional ta’lim hamjamiyatlariga) birlashgan holda birgalikda ishlaydilar.											
	5. Maktab o‘quvchilarning natijalarini doimiy ravishda monitoring qilib boradi.											
	6. Har bir jamoaga uchrashuvlar o‘tkazish hamda o‘quvchilarning ta’limiy natijalarini yaxshilash masalalari bo‘yicha hamkorlikdagi tadqiqotlarda ishtirok etish uchun ish vaqti ajratiladi.											
	7. O‘qituvchilarning har bir jamoasi qoidalarni ishlab chiqadi, bayonlashtiradi va kelgusida ularga amal qiladi, ushbu qoidalarda har bir a’zoning jamoa oldidagi majburiyatlari belgilab qo‘yiladi.											
	8. Har bir jamoadan darslardagi hamkorlikda olib borilgan tadqiqotlar natijalarini to‘plash va umumlashtirish talab qilinadi.											
	9. Har bir jamoa maktabning umumiy maqsadlarini o‘quvchilarning ta’limiy natijalariga aylantira oladi.											
	10. O‘quvchilarning ta’limiy natijalari aniq shakllantirilgan va o‘lchanadigan darajadadir.											
	11. Shakllantiruvchi baholash strategiyalari barcha o‘qituvchilar va o‘quvchilar tomonidan tushuniladi va qo‘llaniladi.											
	12. O‘qituvchilar jamoasi a’zolari birgalikda ishlaganliklari va bir-birlariga bog‘liq bo‘lganliklari sababli o‘zaro doimiy ravishda bir-birlarini qo‘llab-quvvatlaydilar.											
	13. Jamoalar butun o‘quv yili davomida quyidagi maqsadlarda keng qamrovli ma’lumotlardan foydalanadilar:											
	a) o‘quvchilarning ta’limiy ehtiyojlarini aniqlash;											
	b) o‘qituvchilarga o‘z ish tajribalarini yaxshilash kerak bo‘lgan sohalarni belgilashda ko‘maklashish;											
	d) jamoaning belgilangan maqsadlarga erishishdagi o‘sishini o‘lchash va amalga oshirilishi lozim bo‘lgan chora-tadbirlar yo‘nalishini aniqlash.											
	14. Maktab boshqa maktablar va mahalliy hamjamiyat bilan hamkorlik qilishni doimiy ravishda o‘z diqqat markazida saqlaydi.											

11-jadvalning oxiri

Ball (hozirgi holat / joriy vaziyat)	Past → Yuqori											Ball (muhim-ligi)
	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	
	15. Maktab o‘quvchilarning ta’limiy natijalarini yaxshilash bilan bog‘liq rejalarga muntazam ravishda o‘zgartirishlar kiritib boradi.											
	16. Pedagoglarning hamkorlikda ta’lim olish natijalari ommalashtiriladi va har tomonlama rag‘batlantiriladi.											
	17. Maktabda o‘qituvchilarning o‘zaro hamkorligini ta’minlash uchun maxsus resurslar (vaqt, moddiy-texnik vositalar) ajratiladi.											

Bo‘lim yakunida shuni yana bir bor ta’kidlab o‘tamizki, maktab jarayonlarini chuqurlashtirilgan diagnostika qilish maktabni samarali ish rejimiga o‘tkazish dasturini amalga oshirish jarayonida maktab hayotining asosiy sohalarida sodir bo‘lishi lozim bo‘lgan hamda uning ta’limiy yutuqlari yaxshilanishiga olib keladigan o‘zgarishlar monitoringining boshlang‘ich bosqichidir. Shu sababli, diagnostika rejasi, uning tartib-taomillari va vositalari maktab hayotiga uzoq muddatga kirib boradi hamda muntazam ravishda qo‘llanilib, maktab jamoasini yuz berayotgan jarayonlarni tahlil qilish hamda tuzatishlar kiritish uchun zarur ma’lumotlar bilan ta’minlaydi.